



Jadid

adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta



@Jadidrasmiy



@Jadidmediauz



@Jadidrasmiy



@Jadid_uz


ZIYOLI KIM?

Buyuk temuriylar davrida olimlar, shoirlar va me'morlarga izzat ko'rsatildi, natijada dunyoning eng ulug' rasadxonasi insho qilindi, turkiy tilning nafasat-u qudratini namoyon etadigan asarlar yaratildi. Yangi O'zbekiston davrida biz - ziyolilar ana shunday beminnat himmat va muruvvatlardan bahramand bo'lib kelmoqdamiz.



(6-sahifada o'qing)

SIYOSAT



DO'STLIK SARHAD BILMAYDI

Chexiya tarixan Yevropaning savdo, madaniyat va siyosat markazlaridan biri. Ana shu strategik jihatdan muhim bo'lgan Chex Respublikasi Bosh vaziri Andrej Babishning yurtimizga amalga oshirgan tashrifi, ikki davlat o'rtasidagi savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan qator muhim hujjatlar va bitimlarning imzolaniishi munosabatlarni yangi bosqichga ko'tardi. Bu O'zbekiston uchun Yevropa Ittifoqi bozoriga, Chexiya uchun esa Markaziy Osiyo bozoriga chiqishda darvoza vazifasini o'taydi.

salohiyatidan foydalangan holda uchinchi davlatlar bozori uchun qo'shma raqamli mahsulotlar yaratish imkoniyatlari muhokama qilindi.

Chexiya - boy madaniy meros va zamonaviy sanoat salohiyatini uyg'unlashtira olgan davlat. Yevropaning nafaqat geografik, balki siyosiy va iqtisodiy markazlaridan biri sifatida barqaror taraqqiyot va xavfsizlikni ta'minlashda davom etayotganligini hisobga olsak, u O'zbekiston uchun "ko'hna qit'a"da muhim sherikka aylanishi mumkin. Boz ustiga, 2026-yilga kelib, Chexiya yuqori texnologiyalar va yashil iqtisodiyotga o'tish orqali o'zining mintaqaviy yetakchilik mavqeyini yanada mustahkamladi.

Bu jihati bilan esa "yashil" iqtisodiyotga erishish yo'lida odimlayotgan O'zbekiston bilan maqsadlari uyg'un.

100 milliondan ortiq aholi yashaydigan Chexiya uzoq yillardan beri Yevropa Ittifoqida eng past ishsizlik darajasiga ega davlatlardan biri bo'lib qolmoqda. Yaqin kelajakda asosiy o'sish sohalari ilg'or materiallar, kibexavfsizlik va kosmik texnologiyalar sohasidagi loyihalarni o'z ichiga olishi kerak, bu mamlakatlarimiz munosabatlari yuqori texnologiyali ittifoq darajasiga ko'taradi. Chexiyaning geosiyosiy o'rnini uni Sharq va G'arb o'rtasidagi muhim bo'g'inga aylantiradi.

(Davomi 2-sahifada)

TAASSUROT

FARG'ONA TONGI

"Farg'ona tong otguncha" qo'shig'ini yaxshi bilasiz. Bir tomondan mahalliy to'ralar, ikkinchi tarafdin chor bosqinchilari kun bermagan Xaziniy bobo jabrdiyda xalq nomidan mazkur g'azalni jigar qoni bilan bitgan deyildilar:

Hijron o'tig'a bag'rim so'z ona

tong otquncha,

O'rtab yuragim, jismim biryona

tong otquncha...

"Hijron o'ti" oddiy odamiy firol qo'shig'ida emasligi aniq. Yo'qsa, g'azal intihosida shoir "Tor o'ldi Xaziniyga Farg'ona tong otquncha" demagan bo'lardi. Mantiqqa ko'ra, eshon hazratlari Farg'onadan yiroq ketmagan, demak, kimdandir yiroq tushmagan ham. "Hijron" so'zi milliyatdan, ijmondan, ishonchdan, qadriyatdan, ma'rifatdan qilich vositasida ajralgan ulus holatiga ishoradir...

"O'tmishga qaytib ish ko'rmoq"ni ixtiyor etsak, asrlar karvoni g'am-g'ussa ortib, nohaqlik va zulm yukini tortib ko'z o'ngimizdan o'taveradi. Axir, qaysi shoir, qay fuqaro yuz yilliklarda ro'shnolik ko'r'di, ko'ngli tinch, yurt osoyishta bo'ldi? Vodiyl misolida elak ko'tarsak, malikayi davron Nodirabegim baxtiyor edimi? Yo Uvaysiy yo Anbar Otin yo Gulxaniy yo Maxmur yo Muqimiy yo Furqat yo Zavqiy yo Hamza yo Cho'lpon yo Usmon Nosir yo Erkin Vohidov... Yo ularga zamondosh bo'lgan afkor ommami?

Farg'ona butun O'zbekiston kabi qog'ozlardagi, televidiondagi, shiorlardagi "yorug' kelajak"ni emas, chinakam, tabiiy tongni intizor kutib yashadi. Nihoyat...

Yaqin tarixning taraddud manzaralari hamon ko'z o'ngimizda. Sovet istibdodidan qutulgan,



lekin uning Cho'lpon ta'biri bilan aytganda, "g'ul (kishan)"laridan, bo'yinturug'idan qutulolmagan mehnatkash xalq ko'nglida umid va ishonch kurtak bog'lagan paytlar...

Mana endi farg'onaliklarning Prezident tashrifidan cheksiz quvonchi, shukronasi va iftixori qariyb o'n yil avvalgi umid g'unchalari sarhil meva tugganidan dalolat beradi. Xalq bilan Rahbar o'rtasidagi samimiy muloqotlar shuni ko'rsatadiki, Erkin Vohidov lutf etganidek, "O'rtada begona yo'q".

Bugun Farg'ona nafaqat "oltin vodiylar"ning gavhari, balki Yangi O'zbekistonning innovatsion va ma'rifiy lokomotiviga aylanmoqda.

Fayzli, sarishta ko'chalarda, nuroniylarning duosida va yoshlarning shijoatida aks etayotgan Yangi O'zbekistonning yangilanish

nafasi kelajakning ham gullab-yashnashidan dalolatdir.

Keling, keyingi yillarda butun mamlakat qatori Farg'ona viloyatining ham taraqqiyotiga nazar solaylik.

Farg'ona azaldan mehnatkash va izlanuvchan xalqi, serhosil zamini bilan tanilgan. Bugun esa bu ko'hna zamin taraqqiyotning yangi bosqichiga chiqib oldi. Yangi uy-joylar, zamonaviy zavodlar, innovatsion agromajmualar va mintaqani bir-biriga bog'laydigan transport tizimi viloyatning iqtisodiy va ijtimoiy qiyofasini tubdan o'zgartirib yubordi.

(Davomi 2-sahifada)

FAKT

✓ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 30-aprel kuni tabiatni muhofaza qilish, ekologik barqarorlikni ta'minlash, chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish hamda muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni rivojlantirish bo'yicha takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

✓ O'zbekistonning Birinchi xonimi, "Zamin" fondi Vasiylik kengashi raisi Ziroat Mirziyoyeva Xorazm viloyatiga tashrif buyurib, ijtimoiy va ekologik loyihalarni bilan tanishdi.

✓ Qudratilla Rafiqov Markaziy Osiyo davlatlari kasaba uyushmalari Konfederatsiyasi raisi lavozimiga saylandi.

✓ 7-9-may kunlari O'zbekiston Milliy kutubxonasi maydonida "Tashkent Flowers Fest - 2026" gullar festivali bo'lib o'tadi.

IJOD MAKTABI

Har bir insonda yashirin iste'dod, tug'ma qobiliyat mavjud. Maktab va maktabgacha ta'lim boladagi ayni shu xususiyatlarni to'lig'icha kashf etishi kerak. Buning uchun ta'lim tizimi o'quvchi yoshlar qiziqishlaridagi xilma-xillikni qo'llab-quvvatlamog'i zarur. An'anaviy ta'limdagi bir xillik ma'lum ma'noda buni cheklaydi. Chuqurlashtirilgan, ixtisoslashtirilgan va ijod maktablari iste'dod sohiblarini erta tanish, ularni to'g'ri yo'naltirish imkonini beradi.



Hozirgi yoshlar

Erkin Vohidov nomidagi ijod maktabi so'lim vodiylarning yosh adabiyotsevarlari uchun ilhom va imkoniyat maskaniga aylangan bilan ajralib turadi. Maktab xorijiy tillarni, ona tili va adabiyot fanini chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktab-internet sifatida ishga tushirilganiga yetti yil to'ldi.

(Davomi 4-sahifada)

TARIX VA TAQDIR

ULUG'BEKNI ARDOQLAGAN CHEX ASTRONOMI

1873-yilda tashkil topgan Toshkent astronomiya observatoriyasi nafaqat O'zbekistonda, balki butun Markaziy Osiyoda ko'hna ilm maskani hisoblanadi. Dastlab Turkiston o'lkasi meteorologiyasini o'rganish va o'lka hududining xaritasini tuzish maqsadida barpo etilgan vaqtdan boshlab, mazkur observatoriyada kuzatishlar yo'lga qo'yilgan. Biroq 1894-yilda osmon xaritasini tuzish dasturi doirasida osmon jismlarini suratga olish uchun normal astrograf o'rnatilganidan keyingina jiddiy astronomik kuzatishlar boshlangan. Shuning uchun maxsus astrofizik lavozimi ta'sis etilgan.

(Davomi 5-sahifada)



OGOHLIK

SHOD KETIB, IZTIROB BILAN QAYTMANG!



Haj yoki Umra ziyorati har bir mo'min uchun orzu, umri davomida intilib yashaydigan buyuk maqsadlardan biridir. Bu amallar nafaqat insonning diniy burchini ado etishga, balki ma'naviy poklanishi, qalban yangilanishiga ham xizmat qiladi. Shu bois, ziyorat umidida yo'lga chiqqan har bir inson pok niyat, katta ishonch va o'zgacha ishtiyoq bilan qadam tashlaydi.

Biroq so'nggi yillarda aynan shu

muqaddas tuyg'ulardan g'azali maqsadlarda foydalanish holatlari keskin ko'paymoqda. Ziyoratga bo'lgan ehtiyoj ayrim kimsalar uchun "oson daromad manbayi"ga aylanib bormoqda. Natijada litsenziyasiz faoliyat yuritayotgan sayyohlik firmalari va alohida shaxslar tomonidan "arzon", "tez", "yuqori sifat" kabi jozibali va dalar bilan kishilarni aldash holatlari tez-tez ko'zga tashlanayotgani ham bor gap.

(Davomi 3-sahifada)

VATAN MANZUMASI

Anvar OBIDJON

FARG'ONALIKLAR

Necha xil g'animlar sochdi qahrini, Yig'lashni bilmadi farg'onaliklar. Gohi do'st tilsa-da yurak-bag'rini, Do'st dilin tilmadi farg'onaliklar.

Ko'r'di ko'p zilzila, selni, toshqinni, Ko'r'di ko'p talonni, ko'r'di bosqinni, Ko'rsa-da kulbasi yuzlab yong'inni, Yurtidan jilmadi farg'onaliklar.

Bersa ham janglarda mingtalab mardin, Mag'rur chiqdi qoqib etakning gardin, O'tkinchi qismatning o'tkinchi dardin Nazarga ilmadi farg'onaliklar.

Sadoqat bor joyda - diyonat omon, Sotqinlik yomondir, xiyonat yomon, Yovga el bo'lmagan kabi hech zamon, Yovni el qilmadi farg'onaliklar.

Mehmoni otda-yu, o'zlari yayov, Ko'zlari sokin-u, qalbari asov, Zo'rlarni askiya qildi beayov, Ojizdan kulmadi farg'onaliklar.

Tun cho'ksa yor erur qasoskor sabr, Porloq tong sari yo'l azal serjabr, Hayot deb kurashdi, dunyoga axir - Bekorga kelmadi farg'onaliklar.



DO'STLIK SARHAD BILMAYDI

Boshlanishi 1-sahifada.

O'zbekistonning liberallashtirish islohotlari chex investorlari uchun qulay muhit yaratdi. Energetika, suv xo'jaligi va qishloq xo'jaligini raqamlashtirish bo'yicha chex kompaniyalarida katta loyihalar mavjud. Ikki mamlakat uchun ham eng yuqori samara beradigan yo'nalishlar bu, avvalo, transport va mashinasozlik. Temir yo'l va shahar transporti (tramvay, avtobus) parkini yangilash, Chexiya texnologiyalari asosida O'zbekistonda qishloq xo'jaligi texnikalarini yig'ishni yo'lga qo'yish shular jumlasidan.

Chexiyaga yangi bozor va xomashyo kerak bo'lsa, O'zbekistonga zamonaviy texnologiya va sifatli investitsiya zarur. 2026-yilga kelib, ikki davlat o'rtasidagi tovar aylanishining keskin o'sishi va qo'shma loyihalarning ko'payishi bu munosabatlar Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi eng muvaffaqiyatli hamkorlik namunalaridan biri bo'lishidan dalolat beradi. Xususan, 2022-yilda o'zaro tovar ayirboshlash hajmi 184,8 million dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda 344,2 million dollarga, 2024-yil yakuniga ko'ra, 434,7 million dollarga yetdi. O'zbekiston eksportining asosini xomashyo, sanoat mollarini, tayyor mahsulotlarni, oziq-ovqat mollarini va kimyo mahsulotlari tashkil etadi. O'z navbatida, Chexiyadan import asosan mashina va transport uskunalarini, kimyo sanoati mahsulotlari va sanoat mollaridan iborat. Iqtisodiy hamkorlikning amaliy o'lchovi qo'shma korxonalar faoliyatida o'z aksini topadi. So'nggi yillarda O'zbekistonda Chexiya kapitali ishtirokidagi kompaniyalar, jumladan, 100 foiz xorij ishtirokidagi korxonalar sonining barqaror o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda. Bu chexiyalik investorlarning O'zbekiston bozoriga qiziqishi ortib borayotgani va biznes yuritish uchun qulay sharoit yaratilganidan dalolat beradi.

O'zbekiston va Chexiya o'rtasidagi munosabatlar mutlaqo yangi sur'at kasb etmoqda. Ikki davlat rahbarlari va hukumat darajasidagi muloqotlarning faollashgani bu hamkorlik shunchaki diplomatik aloqa emas, balki chuqur iqtisodiy va strategik asosga ega ekanini ko'rsatmoqda. 2025-yil 23-sentyabr

kuni O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 80-sessiyasi doirasida Chexiya Prezidenti Petr Pavel bilan uchrashuv o'tkazdi. O'zbekiston va Chexiya ko'p tomonlama platformalarda hamkorlikni muvofiqlashtirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Mamlakatlarimiz tashqi siyosat idoralari o'rtasidagi aloqalar xalqaro tadbirlar doirasida muntazam ravishda amalga oshirilmoqda.

Madaniy-gumanitar sohadagi hamkorlik ham izchil davom etmoqda. Chexiya ijodiy jamoalari O'zbekistonda o'tkaziladigan xalqaro tadbirlarda muntazam ishtirok etishadi. Chexiya musiqasi ansambllari an'anaviy tarzda Samarqandda o'tkaziladigan "Sharq taronalari" xalqaro festivali mehmoni sifatida faol. Toshkentda YUNESKO ko'magida tashkil etilgan xalqaro jaz festivallarida chex san'atkorlarining ishtiroki madaniy muloqotni rivojlantirishga salmoqli hissa qo'shdi.

Ta'lim va ilm-fan sohasi o'zaro hamkorlikning eng jadal rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biridir. Ikki mamlakatning yetakchi universitetlari o'rtasida barqaror hamkorlik aloqalari o'rnatilgan, qo'shma ta'lim dasturlari va tadqiqot loyihalari amalga oshiriladi. 1997-yildan buyon Chexiya hukumati har yili O'zbekiston fuqarolariga oliy o'quv yurtlarida o'qish uchun stipendiyalar ajratayotgani e'tiborga molik. Shu bilan birga, akademik mobillikning barqaror ijodiy dinamikasi kuzatilayotir. Masalan, 2020-yilda Chexiyada 350 nafarga yaqin o'zbekistonlik talaba tahsil olgan bo'lsa, 2025-yilga kelib bu ko'rsatkich taxminan 650-700 nafarga yetdi. Ta'limning asosiy yo'nalishlari texnik, iqtisodiy, agrar va AKT mutaxassisliklari ekanligi, mazkur ustuvor yo'nalishlarda kelajakda malakali kadrlar taqchilligining oldini olishga xizmat qiladi.

Do'stlik sarhad bilmaydi, masofani tan olmaydi. Bizning siyosatimiz mag'zi shundaki, sayyoraning qaysi mintaqasida bo'lmasin, xalq manfaatini, el osoyishtaligi borasida hamkorlikka tayyor do'st mamlakat topmoqdir. Aynan bu ikki mamlakatning iqtisodiy, madaniy va siyosiy hamkorligi ularning global miqyosdagi o'rini ham mustahkamlaydi.

O'ktam HAMRAALI

Boshlanishi 1-sahifada.

Bu o'zgarishlar iqtisodiyotdagi raqamlarda ham, shu zaminda yashayotgan mamnun chehralarda ham ko'rinadi. Viloyatda kechayotgan o'zgarishlar davlatimiz rahbarining e'tibori va xalqning mehnati birlashgan joyda mo'jizalar yaratish mumkinligining ibratli namunasi bo'ldi, desak yangilishmagan bo'lamiz.

Prezidentimizning viloyatimizga tashrifi chog'ida butun vodi ahlining qalbini g'ururga to'ldirgan yana bir voqea yuz berdi. Farg'ona vodiysida Qo'qon, Namangan, Andijon va Marg'ilon shaharlarini bog'lovchi yangi elektropoyezd qatnovi yo'lga qo'yildi. Mazkur loyiha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maxsus qarori ijrosi doirasida amalga oshirilgan bo'lib, aholi zich yashaydigan Farg'ona vodiysida transport qatnovini yaxshilash, fuqarolarga qulay, xavfsiz va arzon xizmat ko'rsatish, yo'lovchi tashish hajmini oshirishga imkon beradi. 324 kilometrlik ushbu temir yo'l xalqasi vodiylarini o'zaro yanada yaqinlashtirib, aholi, tadbirkorlar va sayyohlar uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Xavfsiz, arzon (chipta narxi 15 ming so'm) va qulay halqa yo'li mamlakatimizda misli ko'rmagan tarixiy voqeelikka aylandi. Bu avtomobil transportiga nisbatan ancha arzon va qulay bo'lishi bilan birga, kuniga 1,5 ming, yiliga qariyb 600 ming nafar yo'lovchiga xizmat ko'rsatish imkoniyati orqali hududda iqtisodiy faollikni oshirishga xizmat qiladi. Boshqa tomondan, temir yo'l xalqasi Farg'ona vodiysining turizm salohiyatini ham yangi bosqichga olib chiqadi. Bekatlar atrofida xizmat ko'rsatish shoxobchalari, mehmonxonalar va umumiy ovqatlanish maskanlarini tashkil etish istiqbollari mahalliy aholi uchun qo'shimcha daromad manbayini yaratadi.

Tashrifning ilk kunida Quvasoydagi "Crown Ceramic" qo'shma korxonasi faoliyati bilan tanishuv mahalliy xomashyo asosida import o'rini bosuvchi va eksport bo'lmagan mahsulotlar ishlab chiqarish davlat siyosati darajasiga ko'tarilganini ko'rsatdi. Xalqimiz "Tuproq olsang oltin bo'lsin" deb duo qiladi. Ana shu ezgu duolar ijobatini mazkur korxonada timsoldi ko'rdik.

Ilm va mehnatning samarasi o'laroq



yuzaga kelgan mahsulot, aniqrog'i, bozorbop yuqori sifatli kafel birov pisand qilmaydigan oddiy toshdan tayyorlanib, valyutaga sotilyapti. Bu mo'jiza emasmi?

"Quva Agrostar" va agrovoltaiqa majmualari bilan tanishuv qishloq xo'jaligida an'anaviy yondashuvdan kompleks agrobiznes modellariga o'tish boshlanganini tasdiqladi. Yetishtirish - saqlash - qayta ishlash - eksport zanjirining yagona tizimga aylanishi va Yaponiyadagi (o'nlab!) davlatlarga eksport qilinayotgani dehqon va tomorqa egalari daromadini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, "yashil" energiya, suv tejovchi texnologiyalar va agrodronlardan foydalanish orqali agrar sohada samaradorlik, ekologik barqarorlik va raqobatbardoshlik ta'minlanayapti.

Karkidon suv ombori hududidagi yangi turizm majmuasi ochilishi Farg'onaning turizm va madaniy meros salohiyatini yangi bosqichga olib chiqadi. Bu kabi loyihalar nafaqat sayyohlar oqimini oshirish, balki xizmatlar eksporti, yangi ish o'rinlari va hududiy brendni shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, tarixiy merosni zamonaviy turizm infratuzilmasi bilan uyg'unlashtirish mamlakatning xalqaro imijini mustahkamlaydi.

Quva tumanidagi 1-sonli texnikum va Farg'ona shahridagi "IT Park Uzbekistan" majmuasiga tashrif inson kapitaliga sarmoya eng muhim strategik ustuvorlik ekanini ko'rsatdi. Yoshlarni zamonaviy kasblar, xorijiy tillar, IT, sun'iy intellekt va startap muhitiga jalb etish kelgusida yuqori daromadli iqtisodiyot uchun mustahkam kadrlar bazasini

FARG'ONA TONGI

talablari uyg'unlashgan ushbu majmua qadim shahar ichidagi shaharcha bo'lib, hududda qadimiy hunarmandchilik an'analari saqlash, ziyorat va madaniy turizmni rivojlantirishga ko'maklashadi. Chunonchi, majmua to'liq ishga tushgach, viloyatga yiliga o'rtacha 200-250 ming nafar xorijiy sayyoh jalb etilishi kutilmoqda. Buning natijasida 2 mingta ish o'rni yaratiladi, byudjetga 52 milliard so'm tushum va 30 million dollarlik xizmatlar eksporti ta'minlanadi. Muhtasham obida Yangi O'zbekiston mo'jizalari qatoridan munosib o'rin egallab, Farg'ona viloyatining tashrif qog'ozlaridan biriga aylanishiga ishonamiz.

Tashrif chog'ida Qo'qon adabiy muhiti antologiyasi va elektron platformasini yaratish, Adabiyot va ijod maktabini tashkil etish taklif qilindi. Yoshlar o'rtasida kitobxonlikni ommalashtirish maqsadida viloyatdagi 100 ta mahallada namunaviy mahalla kutubxonalarini tashkil etilib, buk-kafe ochgan tadbirkorlarga soliq va ijara to'lovlari imtiyozli bo'lishi belgilandi. "Burhoniddin Marg'ioniy" ilmiy-ma'rifiy va turizm majmuasida har ikki yilda Xalqaro kitobxonlik festivalini o'tkazish, unga dunyoning mashhur yozuvchi va shoirlarini taklif qilish tashabbusi ilgari surildi.

Farg'ona madaniyatining ajralmas qismi bo'lgan askiya san'atini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ham alohida e'tibor qaratildi.

Marg'ionida Yusufjon qiziq Shakarjonov nomidagi Respublika askiya va qiziqchilik san'ati markazi tashkil etilibgina qolmay, mutasaddilarga yosh iste'dodlarni qo'llab-quvvatlash, tuman madaniyat markazlari va musiqa-san'at maktablarida askiya va qiziqchilik mahorati yo'nalishlarini ochish topshirildiki, bular Farg'onaning o'ziga xos madaniyati va san'ati umrbodligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ufq qizg'ishtob tus oldi. Keyin azim teraklar uchida tillarang shu'lalar jivalandadi. Musicha, qumirlar subhidam sururidan ilhomlanib, ko'kis to'ldirib, "ku-ku"lay boshladi. Marg'ionning shirmoyi patiri kabi to'lin oftob ro'y ko'rsatdi. Farg'ona osmoni munavvar bo'ldi - tong otdi, rosmana, to'laqonli tong.

Iqbol MIRZO

ANJUMAN



27-28-aprel kunlari qadim va navqiron Xiva shahrida "Lazgi" III xalqaro raqs festivali tantanalari bo'lib o'tganidan xabarimiz bor. Anjuman doirasida "Jahon madaniy taraqqiyotida raqs san'ati: an'ana va umumbashariy qadriyatlar" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi ham ish olib bordi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari Said Mirziyoyeva III "Lazgi" xalqaro raqs festivali ochilish marosimida ishtirok etdi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tabrigini o'qib eshittirdi.

"Lazgi" sharofati bilan

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, Xorazm viloyati hokimligi, YUNESKO, TURKSOY xalqaro tashkilotlari, Xalqaro festivalllar direksiyasi, O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi, Madaniyatshunoslik va nomoddiy-madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti tashkilotchiligidagi o'tgan ushbu betakror san'at tantanalari va ilmiy anjuman tafsiloti mahalliy va xorijiy ommaviy axborot vositalari tomonidan keng yoritildi.

Muhtaram Prezidentimizning festival qatnashchilariga yo'llagan maktubida Xorazm "Lazgi" turkumi kabi o'z davrining tarixiy taraqqiyoti, estetik-etnografik tamoyillari bilan uyg'unlashgan har qanday milliy san'at xalqaro madaniy diplomatiyaning muhim omili sifatida mamlakatlarda hamjihatlik va totuvlikni mustahkamlash, shu asosda o'sib kelayotgan yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlangani bejiz emas. Global dunyoda madaniy-ijtimoiy hamkorlikka muayyan tizim sifatida yondashish, uning tarbiyaviy-ma'rifiy qudratiga ega jihatlarni, xarakterli qirralarini aniqlash, ularni ilmiy-qiyosiy tahlil qilish davr talabiga aylandi.

Anjumanning tantanali ochilish marosimida TURKSOY bosh



kitab Sulton Rayev, Qozog'iston milliy xoreografiya akademiyasi rektori, professor Bibigul Nuspjanova, Jumabek Tashenev nomli universitet prorektori, dotsent Shahlo Naraliyeva, Boku xoreografiya akademiyasi prorektori Noila Mamatzoda, Moskva davlat madaniyat instituti dotsenti Anastasiya Butsan, Shvetsiya Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, shoir va tarjimon, professor Abdushukur Muhammad kabi namoyandalar qatori AQSH, Turkiya, Malayziya, Pokiston, Hindiston, Belarus Respublikasi, Misr kabi davlatlardan san'atshunos olimlar, xalqaro ekspertlar, jamoat arboblari tabrik so'zlari va ma'ruzalari bilan ishtirok etdilar.

Konferensiya ishida tadqiqotchilarning jahon xalqlari san'ati taraqqiyotida Xorazm "Lazgi"

raqsining o'rni va ahamiyati, "Avesto" "goh"lari bilan uyg'unligi, o'zbek milliy raqs san'ati tarixi va shakllanish bosqichlari, marosim va folklor raqslari hamda ularning ifoda uslublari, raqs ta'limi, musiqa madaniyati, milliy va zamonaviy raqs san'atshunosligi muammolari, o'zbek milliy raqs san'ati targ'iboti, xorijiy mamlakatlardagi o'zbek milliy raqs dastalarining faoliyati, raqs san'ati darg'alarining ijrochilik mahorati mavzusidagi va'zlari tinglandi.

Xalqaro anjuman dasturiga kiritilgan maqolalar to'plami, shuningdek, shved tilida chop etilgan "Xorazm "Lazgi" raqs: tarixi va tavsifi" monografiyasi (tarjimon A.Muhammad), Hindistonda nashr etiladigan xalqaro ilmiy jurnalning "Lazgi" turkumiga bag'ishlangan soni, O'zbekiston

davlat xoreografiya akademiyasi professor-o'qituvchilari tomonidan o'zbek va ingliz tillarida tayyorlangan "Xorazm "Lazgi" san'ati: yuksalish yillari" risolasi tarqatildi. Shuningdek, milliy raqs tarqatilgan xalqaro ilmiy-madaniy loyihani amalga oshirish masalalari muhokama qilindi. Xususan, O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi ilmiy-pedagogik jamoasi tomonidan "O'zbek xalq raqs antologiyasi" bo'limini tayyorlashga e'tibor qaratildi.

"Lazgi" raqs kabi noyob san'at durdonalari idizlarini aniqlash, ularning tarixi va ilmiy-nazariy tamoyillari, xalqaro madaniy diplomatiyani rivojlantirishdagi ahamiyatini ko'rsatuvchi yo'nalishlarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash lozirligi ko'rsatib o'tildi.

Shuningdek, "Xorazm "Lazgi" raqs" milliy ensiklopediyasini yaratish, jahon xalqlarining milliy madaniyatlarini turli-tumanligini saqlash hamda rivojlantirish,

milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg'unligini keng targ'ib etish, jahon yoshlarini madaniy jihatdan yaqinlashtirish maqsadida bag'rikenglik, do'stlik, hayotsevarlik kabi chin insoniy qadriyatlar tarannum etilgan san'at bayramlari, adabiy anjumanlar bo'yicha ijodiy tanlovlarning innovatsion tizimini yaratish bo'yicha tavsiyalar berildi.

O'zbekistonlik olimlar tomonidan "San'at sohasidagi O'zbekiston ramzlari" loyihasini ishlab chiqish tashabbusi ilgari surildi. Jumladan, "Lazgi", "Tanovar", "Gul sochar", "Mavrigi", "Qiz munoyim", "Maydamayda", "Andijon polkasi", "Namanganning olmasi" kabi turli hududlarimizga xos noyob musiqa va raqs durdonalari ijrosi bo'yicha tanlov va bayram konsertlarini tashkil etish haqidagi fikrlarni xorijlik hamkasblarimiz ham qizg'in qarshiladi.

Anjuman so'ngida o'zbek, rus va ingliz tillarida tayyorlangan "Jahon madaniy taraqqiyotida raqs san'ati: an'ana va umumbashariy qadriyatlar" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya rezolyutsiyasi tinglandi va ma'qullandi.

Ikromiddin OSTONAQULOV, tarix fanlari doktori, Hulkar HAMROYEVA, filologiya fanlari doktori, professor



Boshlanishi 1-sahifada.

Eng achinarlisi, bu kabi firibgarliklar oddiy moliyaviy yo'qotish bilan cheklanmaydi. Ular insonlarni, asosan, yoshi ulug' yurtdoshlarimizni begona elda sarson-sargardon holda qoldirishi, muqaddas ziyoratni ado etish imkoniyatidan mahrum qilishi, hatto hayoti yo salomatligi uchun jiddiy xavf tug'dirishi mumkin.

Shunday vaziyatda mazkur muammoni ochiq-oydin ko'tarish, aholini oqohlantirish va hushyorlikka chaqirish muhim masaladir.

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi huzuridagi "Ziyo" media markazining internet sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalariga 2025 dan 2026-yilning hozirgi davriga qadar noqonuniy Umra va Haj ziyoratlarini tashkil etish holatlarini yorituvchi, kishilarni firibgarlar tuzog'idan oqoh etuvchi jami 65 ta hujjatli rolik joylangan.

Xo'sh, bu ko'pmi? Ko'p ham gapmi? Agar Toshpo'lat tajang bizga zamondosh bo'lganida, bu holni ko'rib peshonasi tirishardi.

Tavba, har narsadan pul qilayapmiz-a: ota-onaga hurmatni, yorga muhabbatni, do'stga sadoqatni, hatto ibodatni. Eng achinarlisi, bu kabi holatlar bir marta sodir bo'lib qolmayapti, balki takrorlanmoqda, demak, hanuz odamlarning ishonch va ehtiyojidan foydalanishga urinayotganlar bor.

NEGA ODAMLAR ALDANMOQDA?

Bu yerda aybni firibgarlarga ag'darib qo'yish oson, ammo muammo ikkinchi tomon, ya'ni ishonuvchan, tekshirmasdan qaror qabul qilayotgan odamlar ham sabab bo'layotganini inobatga olmaslik mumkin emas. Afsuski, ko'p hollarda fuqarolar ziyoratga bo'lgan kuchli istak va shoshqaloqlik ta'sirida eng oddiy tekshiruvlarni ham chetlatib o'tadi. "Arzon", "tez", "ishonchli", "yuqori sifat", "alohida guruh" kabi va'dalar esa ularni mantiqiy fikrlashdan uzoqlashtiradi.

Aslida, muqaddas ziyoratdek jiddiy masalada "oson yo'l" degan tushunchaning o'ziyoq shubha uyg'otishi kerak. Yana bir achchiq haqiqat - ayrim odamlar haligacha "tanish-bilish orqali", "pul bilan tez hal qilib beruvchi"larga ishonish odatidan voz kechmagan. Qonun, tartib va rasmiy manbalar o'rni quruq gap-so'zlariga ishonish firibgarlar uchun tayyor imkoniyat yaratadi. Bu nafaqat huquqiy savodsizlik, balki shaxsiy mas'uliyatsizlik hamdir.

"Qurbon"lar ijtimoiy tarmoqlardagi yolg'on reklama, soxta va'dalar, "kafolat"larga ishonadi. Firibgarlar esa aynan shu jihatdan ustalik bilan foydalanadi. O'zini "dindor", "ishonchli", "ko'pni ko'rgan" qilib ko'rsatadi, odamlarning e'tiqodi va soddaligini suiiste'mol qiladi.

Demak, muammo faqat firibgarlarda emas.

BEGONA YURTDA QOLGANLAR

2023-yili O'zbekiston Prezidenti ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan bir ming to'rt yuz kishini Umra ziyoratiga yo'lladi. Aynan o'sha ziyorat tafsilotlarini ommaviy axborot vositalarida yoritib borish vazifasi Saudiya Arabistonida xizmat safarida bo'lib turgan "Ziyo" media markazining xodimlari zimmasiga yuklandi.

Madinayi munavvarada, Payg'ambar alayhissalom maqbaralarini ziyorat qilish uchun saf tortgan ziyoratchilardan intervyu olish bilan band edim. Ishimni tugallashim bilan kimdir yelkanga

SHOD KETIB, IZTIROB BILAN QAYTMANG!



ohista qo'l tashlaganini his qildim. Yurdoshlarimizdan biri ekan.

- Assalому аlaykum, yaxshimisiz, jurnalist ekansiz, bir iltimos bor, jon aka, - dedi u yalinchoq ovozd.

Alik olib, "xo'sh" dedim.

- Biz firma bilan kelgan edik, uch kundan beri Ravzaga kiritishmayapti, iltimos, yordam qiling. Tasvirlaringizni qo'riqchilar to'shmayapti, bizniyam ichkariga olib kirib keting, - dedi hamyurtimiz.

Ravza atrofida ham tasvirga olishga ruxsatimiz bo'lgani uchun chindan bizing kirib-chiqishimizga monelik qilinmayotgan edi. Markaz vakili ekanligini bildirib turuvchi belgilardan birini taqib olsa, u kishiga ham qarshilik qilinmasligini anglagan ko'rinadi. Vatandoshimizga "yo'q" demadik. Tasodifiy qarangki, o'zimiz joylashgan mehmonxonaga qaytar ekanmiz, yana ularga duch keldik. Ko'zdan xoliroq joyda chekayotgan ikki-uch kishini kutib turgan ekan.

- Bizni olib kelganlar mana shularda, - dedi alamzadalik bilan. - Ibdatlarni mukammal ado etishimizga yordam qilishni va'da qilishgan edi. Birortasi namoz o'qiganini ham ko'rmadim. Bularga faqat pul qiziq, shekilli.

Unga tasalli berib, xayrlashib, ertasiga Makkayi mukarramaga yo'l oldik. Yetib borganimizning uchinchi kuni rejissyorimiz Mekoil Sulaymonov bilan ko'chadan tasvir yig'ishga chiqdik.

- Qarang, o'zbekistonlik ayollarga o'xshaydi, - deb qoldi Mekoil aka bizdan ancha narida yegulik xarid qilayotganlarni ko'rsatib. - Yuring, intervyuni shulardan olamiz.

Ayollar bilan salom-alik qilib, mud-daoni aytdik.

- Mayliyu-ya, - dedi ularning yoshi eng ulug' bo'lgan onaxon. - Faqat nima deb gapiraman. Kelganimdan beri sarson-sargardon bo'lganimni? Firmasiyam bor bo'lsin. Ikki kundan beri Ka'bag'a kirolganimiz yo'q. Mehmonxonamiz ovqat bermaydi. Ko'chaga chiqib, o'zimiz yegulik olib kirib bir narsalar qilib turibmiz. O'zi musulmonlar idorasining guruhida kelish kerak ekan. Hamma narsasi tartibli, na qorin, na joy, na moshin qayg'usi bor.

Onaxon ancha gapirdi. Fig'onidan chindan dud chiqdi. Intervyuni ham unutib, hayron bo'la-bo'la ortimizga qaytdik.

Aftidan, o'sha vaqtlarda Umra ziyoratini tashkil etishi mumkin bo'lgan turfirmalar masalasining bunday noxush tomonlari endi-endi bo'y ko'rsata boshlagan ekan, shekilli. To tartibga keltirilgunga qadar bunday holatlar tez-tez uchray boshladi. O'zbekistonlik ziyoratchilar bilan bog'liq eng yirik va shov-shuvli ko'ngilsizlik 2024-yilning fevral oyida sodir bo'ldi. O'shanda Saudiya Arabistoniga noqonuniy yoki yarim legal yo'llar bilan borgan yuzlab o'zbekistonlik ziyoratchilar uyga qayta olmay, Makka va Madina shaharlaridagi mehmonxonalardan haydaliq, ko'chalarda va aeroportlarda qolib ketdi. Negaki, ularni olib borgan firmalar vakillari qaytish chiptalari va mehmonxonaga pullarini to'lamay, tashlab ketishgan ekan.

Bu voqea nafaqat alohida firibgarlik holati, balki ziyorat tizimidagi bo'shliqlar va nazorat mexanizmlarini keskin qayta ko'rib chiqish zarurati ochiq ko'rsatib bergan burilish nuqtasi bo'ldi. Vaziyat davlat darajasida hal etilib, O'zbekiston hukumati, Diniy qo'mita va Diniy idora aralashuvi bilan maxsus aviareyslar tashkil etilgach, aldanganlar qisqa vaqtda yurtga qaytarildi.

SHUNDAN SO'NG...

O'zbekistonda Umra ziyoratini tashkil etish tartibi keskin kuchaytirildi. litsenziyasiz faoliyat yuritgan qirqa yaqin turfirmaga nisbatan jinoiy ish qo'zg'atildi. Umra faoliyati uchun litsenziya olishda bir million AQSH dollari miqdoridagi mablag'ni "Ziyorat" jamg'armasiga xazira qilib qo'yish talabi joriy etildi. litsenziyasiz xizmat ko'rsatgan firmalar uchun 75 million so'm miqdorida moliyaviy jarima belgilandi. Chunki bunday voqealar fonida jamoatchilikning fikri ikkiga bo'linib, noqonuniy faoliyat yuritayotgan turfirmalar bir tomondan qolib, davlat organlarining nazoratsizligi borasidagi gap-so'zlar bolalay boshlagan edi.

Aksar kishilar hamma qilmishini qilib, o'zini bir chetga urgan, odamlardan pul olib, ularga qaytish chiptalarini olib

bermagan, mehmonxonaga to'lovlarini amalga oshirmagan "Gulbahor Airways" yo "Panorama Travel" firmasini emas, ularning paydo bo'lishiga va ochiqchasiga reklama qilinishiga yo'l qo'yib bergan davlatni, Din ishlari qo'mitasini, O'zbekiston musulmonlari idorasini malomat qilishdan o'zlarini tiya olmadi. Aslida, faqatgina shu ikki kompaniya ziyoratchilarga jami 25 milliard so'mlik moddiy zarar yetkazgan va jabrlanuvchilar soni 2558 nafarni tashkil etgan edi.

Ziyoratchilarning, ayniqsa, keksa yoshlarning diniy tuyg'ularidan foydalanib, ularni begona yurtda yordamsiz qoldirishni keksa-yu yosh, barcha birdek insofsizlik deb baholadi. Surishtiruvlar natijasida ko'plab firmalar umra biznesidan mo'may daromad ishlab olish istagida tegishli litsenziyasiz va Saudiyadagi hamkorlar bilan shart-nomasiz ish yuritgani ma'lum bo'lgach, voqealar rivojiga davlatimiz tekzor aralashdi.

O'shandan beri bu qadar katta "qovun"lar tushmadi har tugul. Ammo ziyorat umidida bo'lgan sodda kishilarni laqillatish holatlari, baribir, uchrab turibdi. 2025-yilning birinchi choragida ham litsenziyasiz faoliyat yuritgan firmalar tufayli Saudiya Arabistonida qiyin ahvolda qolgan 580 nafar o'zbekistonlik davlat ko'magi bilan yurtimizga qaytarilgan.

Shu o'rinda "hukumat qayerga qarayapti?" deb ginaxonlik qilishga odatlanib qolganlarga shunday deging keladi: davlat hech qachon o'z fuqarolarini unutib qo'ymaydi, ayniqsa, "Inson qadri" g'oyasini o'z tamoyili sifatida belgilab olgan va yurt boshida ezgu islohotlarni boshlagan Prezident turgan Yangi O'zbekistonda. Yaqin Sharqdagi (AQSH-Isroil va Eron o'rtasidagi) harbiy keskinlik kuchayishi fonida hozirga qadar Saudiya Arabistonidan 21 mingdan ortiq O'zbekiston fuqarosi Vatanga qaytarilgani bu so'zga isbot.

QONUN NIMA DEYDI?

Aslida, muammoning bu qadar chuqur ildiz otmasligi uchun 2017-yil 7-iyunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Haj" va "Umra" tadbirlarini tashkil etish va o'tkazishni

yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 364-sonli qarori qabul qilingan. Qarorga asosan "Haj" tadbiri O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasi va Saudiya Arabiston Podshohligi Haj va umra vazirligi o'rtasida har yili imzolangan shartnoma asosida O'zbekiston musulmonlari idorasi tomonidan amalga oshiriladi hamda bunday faoliyat bilan boshqa tashkilotlarning shug'ullanishiga yo'l qo'yilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitaning gov.uz/religione saytida Umra ziyoratini tashkil qilish huquqini beruvchi maxsus litsenziyaga ega quyidagi 14 yuridik shaxs ro'yxati keltirilgan:

"Ihlos travel 1",
 "Yuksak travel Air",
 "Muhtasham travel",
 "Musaffo turizm xizmati",
 "Risola travel lux",
 "Xorazm umra jamiyati",
 "Hikmat Umra Travel",
 "Real Dreams",
 "Travel with family",
 "Panorama Airways Travel",
 "Zamon Travel Group",
 "Safar Baraka Travel",
 "Buxoro umra jamiyati",
 "Centrum holidays"

mas'uliyati cheklangan jamiyatlari.

Ha, hozircha faqat mana shu firmalar rasmiy tarzda Umra ziyoratini tashkil etish bilan shug'ullanishlari mumkin.

ALDANMASLIK UCHUN 6 QOIDA

Muqaddas ziyorat yo'lida xato tanlov qilish nafaqat moliyaviy, balki ma'naviy yo'qotishlarga ham olib kelishi mumkin. Shuning uchun quyidagi oddiy, ammo muhim qoidalarga amal qilish foydadan xoli bo'lmaydi.

Birinchi qoida: litsenziyani tekshiring. Ziyoratni tashkil etayotgan turfirmaning rasmiy litsenziyasi bor-yo'qligini, albatta, aniqlang. Buni Din ishlari bo'yicha qo'mita yoki rasmiy manbalar orqali amalga oshirish mumkin.

Diqqat bilan qarang: Din ishlari bo'yicha qo'mita tomonidan berilgan Umra litsenziyasida turfirmaning rasmiy ishlaydigan ofisi manzili yozilgan bo'ladi. Rasmiy turfirma faqat shu manzilda faoliyat ko'rsatadi. Siz tanlagan turfirmaning ofisi litsenziyada ko'rsatilgan manzildan boshqa joyda joylashgan bo'lsa, aniq bilingki, firibgarlarga duch kelgansiz.

Ikkinchi qoida: hech qanday shart-nomasiz to'lov qilmang. Har qanday xizmat faqat rasmiy shartnoma asosida amalga oshirilishi shart. Unda xizmat turlari, narxi, tibbiy va huquqiy xizmat, javobgarlik va qaytish masalalari aniq ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

Uchinchi qoida: sizga Umra vizasi rasmiylashtirilishi kerak. Ushbu vizaning tarkibida tibbiy sug'urta mavjud bo'lib, sog'lig'ingiz bilan bog'liq har qanday holatda Saudiyadagi shifoxonalar sizni "Allohning mehmoni" sifatida qabul qiladi va bepul davolaydi. Turizm vizasi bilan safar qilib shifoxonaga murojaat qiladigan bo'lsangiz, 10-15 ming AQSH dollarini to'lashga tayyor turing.

To'rtinchi qoida: naqd pul berishdan ehtiyot bo'ling. Pulni rasmiy hisob raqam orqali o'tkazgan afzal. "Naqd bersangiz, tez hal qilib beramiz", degan va'dalar

sizda hamisha jiddiy shubha uyg'otishi kerak. Saudiyada aldanib qiyin ahvolda qolgan ziyoratchilarimizning to'qson foizi aynan qo'ldan qo'lga naqd pul bergan, aeroportda to'lovlarni kimlargadir topshirgan.

Beshinchi qoida: turli bloger va mashhur shaxslarning ijtimoiy tarmoqlardagi reklamasiga ishonmang. Firibgarlar sizga onlayn shartnoma yuboradi, to'lovni plastik kartaga o'tkazishni yoki aeroportda berishni so'raydi. litsenziyalangan 14 ta turfirma yoki O'zbekiston musulmonlari idorasining "Haj va Umra markazi" ofisiga borib gaplashing. Ma'lumotni rasmiy manbadan tekshiring. Ijtimoiy tarmoqlar, messenger kanallari yoki tanishlar orqali kelgan ma'lumotlarga ko'r-ko'rona ishonmang. Har qanday taklifi rasmiy ro'yxat va ishonchli manbalar orqali tekshirish odatini shakllantiring.

Oldinchi qoida: Haj ibodatiga borish uchun turfirmalarning yoki o'rtakashlarning aldoviga uchmang. Bu jarayon Saudiya Arabiston tomonidan kvotalangan bo'lib, Haj mavsumida faqat Haj vizasiga ega bo'lgan ziyoratchilar kirishi mumkin. Turistik viza yo'q boshqa soxta hujjatlar bilan borishga urinmang. Shuni yodda tuting, turfirma sizga Haj vizasini rasmiylashtirib bera olmaydi! Saudiya qonunchiligida bunday holatlar uchun aynan sizga qattiq choralar ko'riladi.

Bu qoidalarga amal qilmagan yuzlab fuqarolarimiz pand yeb, o'n yilga deportga tushgan, ularni olib borgan turfirma vakillari esa, afsuski, suvdan doim quruq chiqqan...

UNUTMANG!

Haj va Umra ziyoratlarini noqonuniy tijoratga aylantirishga urinayotgan shaxs va "turfirma"lar faoliyati oddiy qoidabuzarlik emas, balki inson ishonchiga xiyonat, taqdiri bilan o'ynashish va ochiqchasiga firibgarlikdir. Amaldagi qonunchilikka muvofiq, "Haj" ziyoratini tashkil etish mutlaqo O'zbekiston musulmonlari idorasi vakolatiga kiritilgan bo'lib, bu jarayonda boshqa hech qanday tashkilot ishtirok etishi mumkin emas. "Umra" ziyorati esa O'zbekiston musulmonlari idorasi va faqat maxsus litsenziyaga ega bo'lgan rasmiy turfirmalar orqali amalga oshiriladi.

Aldovlarga ishonganlar esa o'zlarini o'ta og'ir va xavfli vaziyatga solib qo'yadi. Ularning begona yurtda turar joyisiz, oziq-ovqatsiz, transportsiz, tibbiy yordamsiz, huquqiy himoyasiz qolib ketayotganiga guvohmiz. Eng achinarlisi, ular muqaddas ziyoratni ado etish imkoniyatidan mahrum bo'lib, ruhiy iztirobni ham boshidan kechiradi.

Shu o'rinda alohida ta'kidlab o'tish kerakki, litsenziyasiz, noqonuniy faoliyat yuritayotganlar tomonidan aldangan fuqarolarga nisbatan na davlat, na rasmiy turfirmalar, na davlat tasarrufidagi munitsaddi idoralar javobgar emas. Chunki bu o'rinda tanlov fuqaroning o'zida bo'lgan.

Yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish uchun Davlat tomonidan ko'rsatilayotgan yordam esa insonparvarlik ifodasi. Bir so'z bilan aytganda, savob umididagi muqaddas ziyorat firibgarlar uchun daromad manbai bo'lib qolmasligiga har birmiz mas'ulimiz.

Abdulhamid MUXTOROV,
 "Ziyo" media markazi direktori

JARAYON



Bugun dunyo iste'molchilari nafaqat sifatga, balki dizayn ham e'tibor qaratmoqda. Shu bois, yetakchi ishlab chiqaruvchilar o'z mahsulotlarining chiroyli ko'rinishi uchun muntazam ish olib boradi.

SANOATDA HAM SAN'AT KERAK

Bu esa bevosita san'at bilan bog'liq. Mamlakatimiz ishlab chiqaruvchilari ham jahon bozoriga kirib borar ekan, tovarlari tashqi ko'rinishiga alohida ahamiyat bermoqda. Bu yo'lda sanoat dizaynini mukammal egallagan yosh kadrlarni tarbiyalash vazifasi qo'yilgan. Ana shu mas'uliyatli vazifani amalga oshirishda Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetining Sanoat dizayni kafedrasida o'zining munosib o'rni va nufuziga ega.

Mazkur kafedra 1991-yilda tashkil etilgan bo'lib, qisqa vaqt ichida dizayn sohasida yetakchi ta'lim markazlaridan biriga aylandi. Uning rivojlanishida professor Dodo Nazilovning xizmati katta bo'ldi. Ayni

paytda kafedrada ko'plab professor va o'qituvchilar faoliyat olib bormoqda. O'qituvchilar tomonidan 40 dan ortiq darslik, o'quv qo'llanma va uslubiy ko'rsatmalar nashr etilgan. Maxsus fanlardan elektron o'quv qo'llanmalar ham yaratilgan. O'quv jarayoni davomida talabalar "Adobe Photoshop", "Corel Draw", "3D Max" kabi kompyuter grafik dasturlarini chuqur o'rganadi. "Yosh ijodkorlar" to'garigida yoshlarga rassomlik sirlari o'rgatib kelinmoqda.

Iqtidorli talabalar doimiy ravishda o'tkaziladigan nufuzli tanlovlarda, jumladan, "Red Bull DoodleArt" tanlovi, "AdWeek.uz" marketing va reklama haftaligi, shuningdek, hududiy gullar ko'rgazmasi, "Toshkent-Flora"



landshaft arxitekturasi va Respublika darajasida o'tkazilgan Biennial ko'rgazmasining doimiy ishtirokchilari hisoblanadi. Kafedra o'tgan yillar davomida 600 dan ortiq

mutaxassis-dizaynerlar tayyorlashda katta hissa qo'shgan. Ular yurtimizda va xorijda sohangin turli yo'nalishlari bo'yicha muvaffaqiyatli faoliyat olib bormoqda.

Iqboljon ILHOMOV,
 Sanoat dizayni kafedrasidotsenti



Abdunabi BOYQO'ZIYEV

Bulut siyoq uchib
Boryapman, laylim,
Tund havolar ixtiyorida.
Qayerda yog'dirsa, O'zining mayli,
O'zining erkidir, yog'dirmasayam...
Qayerda bo'lsa ham, yog'dirsing, mayil!..

O'z
Labzimga
Ishonch yo'q damda
She'rlarimga inondingiz,
Rahmat, odamlar!..

YOZUQ

Omad
Senga ko'p kulib boqdi,
Yo'llaringda bo'ldi u tashna.
Biroq senda kulmadi taqdir,
Tanimading Hizrni, oshna!

Havo...
O'z hovriga dimlanib oldi,
Bo'g'riqadi atrof-javonib.
Nabototi behol, shamoli behol,
Borliq yonib yotar, bu axir Janub!

Jazirama otdi yana bitta tong,
Taft tashlaydi faqat ko'rshomga borib.
Ah, mening otam-a, o'tib ketibdi,
Jizg'on dalalarda... oftob sug'orib!

Qadamimda yo'llar yastandi,
Safaridan bersin Xudoyim!
Quris ham mayli-da sillam,
Yo'llar bilan bo'layin doim.

MEN

Yo'llarsiz hech kim emasman,
Yo'li yo'qning nomi o'chadir.
Mensiz yo'l ham hech kim emasdir,
Mensiz u ham oddiy ko'chadir.

Yurak g'amgin bo'yli qirmiz olmadir!

XIYOBON KURSILARI

Qoyil sizga,
So'fiy kursilar,
Hech vaqosiz mehmon kutasiz...
Shohmi u yo gado, siz birday.
Gohida, hayratda qoladi odam,
Eng nochor, eng majhul o'tkinchigayam
Nafasing rostlab ket, deya olasiz!

YASHAYAPTI-KU!

Bu daraxtga
Parvo kerakmas,
Pana-pastqamda ham o'saveradi.
Xo'p, ana, musaffo, op-ochiq osmon...
Xavf-xatardan boshqa nima beradi?!

Xo'p, kunduz quyoshga,
Xo'p, tunda oyga,
G'uj'on yulduzlarga yetdi qay daraxt?
Xo'p, bo'yda kimo'zarga qildiyam poyga,
Illo, qarag'ayga kulib boqar baxt!

Deylik,
Bo'ron turdi,
Deylik, do'l yog'di,
Deylik, chaqmoq chaqsa... Xudo biladi,
Boshiga nelarni soladi taqdir?!
U daraxt
Shu avloqni avlo biladi,
Osmon, yulduz, quyosh unga kerakmas,
O'smay qolganiga... shukur qiladi!

GUM-GUNG

Tumanlikka singib ketdi bog'.
Nafis og'ochlardan sharpa qolmadi.
Kuzgi bog'lar... Bizni unuti, evoh,
Yurak g'amgin bo'yli qirmiz olmadir!

SIYLI QISMAT

Halima XUDOYBERDIYEVAGA

Men
So'z bog'idan o'tdim,
So'z bog'lar mendan o'tdi...
Men so'zga mehr tutdim,
So'zlar menga gul tutdi.

Har cho'p ifor ilindi,
Tebrona barg, butog'lar,
Xo'p bearmon yashadim,
Armonlarni quchog'lab.

Hay yoron,
Umr o'tdi,
Umr-la menim o'tdi.

Qanday o'tdi? Yo Xudo,
O'zing bilganday o'tdi!
O'zing bilganday o'tdim!

Men o'tdim
So'z dog'ida,
So'z sehirga boylona.
Men o'zingdan kelgandim,
Qaytyapman senga, mana...
Zoraki, yetib borsam,
Kalomingda siylona!

Shoirlik –
Siylil qismat,
Bo'ldim el quchog'ida,
So'z bog'idan o'tsam-da,
O'tdim so'zning dog'ida!

E hay,
Bizning yoshlik boshqacha edi,
Boshqacha boqardik bir-birimizga.
Ilkis nigohlarda bo'zlashar edik,
Izhoril dil qila ko'zlarimizga.
Nigohlar tutashsa, dilda g'alayon,
Bir on chaqnashida milyon ma'nolar.
Kerak ham bo'lmasdi bulbuli zabon,
Uyat hukmidaydi oh-u voh, nola.

Mehrimiz buloqday sim-sim oqardi,
Sen esa yashardig ibo nahrada.
Juda baland edi hayoning qadri,
Shunchalar balandki – Tangri mahriday!

Pinhon qovurardi
Ishq dardi bizni,
Gar uryon esa-da faryodlarimiz...
Indamay aytarding sen... o'sha so'zni,
Indamay yig'lardi... unlarim unsiz.
Indamay yig'lardi... tunlarim unsiz.

Bir dilso'z
So'zlarni solki dilimga,
Gung-u lol tilimni so'zlatins ular.
Ohli bo'zlovuqlar keltir tilimga,
Hatto tosh qalblarni bo'zlatins ular!

Oyday yorug' tushsin baytlarim yuzi,
Dillarda bir yorug' o'ylar uyg'otsin.
Dilimdan o'tkizgan har bitta so'zing
Bir qorong'u dilda tong bo'lib otsin.

Gohda odamman-u odam emasman...
Men so'zning adosi bo'ldim-ey chog'i.
Men so'z bodasiga g'arq bo'lgan kasman,
Tun-u kun bo'g'zimda so'zning pichog'i...

Tun-u kun erkli so'z sori yukindim,
Fil hol yuragimda bitta iltijo.
Meni shu ko'ylarga solgan o'zingsan,
Dildosh so'zlaringga zor qilma, Xudo!

Yo Xudo,
Sen suygan so'zlarning gadosiman men!..

Kunlarim –
Boylıklarım...
Misqol-misqol kertib boryapman.
Xudo manglayimga bitgan bo'lsa-da,
Har damin tilloga tortib olyapman.

Har kunimga
Bir kun umr to'layman,
Bir kunni undirmoq qanchalar azob.
Vaqt bobida saxiy, hotamitoymen,
Ne olsam hisobli, bersam behisob.

Har kunim
Umrimga
Xiroj bo'lguncha,
Kunlar uvalanar, oy, yillar o'tar!
Ay hayot, bebaqo bo'lmasa buncha,
O'tmishning qo'lidan tutar-u ketar!..

O, xayol,
Men seni yaxshi bilaman –
Azim etsang sharqim-u g'arbim bir qadam.
Sirman sirlaringda. Rahmat, bo'l omon,
G'amgin damlarim-u barqim bir qadam.

Men uni
"...shu bugun ko'rmasam bo'lmas",
Chehrasin opkel yo Unga olib bor –
Jamoliga yetkaz qanotlaringda.
Visolisiz o'tgan har kecham – ozor...
Kunduzim yig'laydi tungi holimga!

Xayol,
G'amguzorim,
Ko'nglim mahrami,
Xasta dilning aytib-degulari bor.
Hasratki, qalamga aytilmaydi, yo'q,
Illo, qog'ozga ham bitmog'i dushvor!

Sirdosh,
Dildoshimsan,
Xayol, o'mon bo'!
Jizg'on yonishlarim ichingda qolsin.
Chunki jamoliga... faqat sensan yo',
Faqat sen, faqat sen, faqatgina sen!

ODAMLAR ORASIDA

NEGA BIZDAN SHOIR CHIQMAYDI?

Hamqishlog'im Abdukurim boboning ajabtovur odati bor. Har oy nafaqa pulini olgach, tuman markaziga tushib o'zi yoqirgan kitoblarni (nevaralarga bolaboplaridan) xarid qilib, mamnun kayfiyatda qaytadi.

Bir kuni bobomiz hasratidan chang chiqib, gapirib qoldi.

"Qishloqqa yo'lovchi taksida qaytdim. Yonimda Boboqul muallim. Bir payt qo'limga xaltaga qarab gap boshladi:

– Bozorlikni katta qilibsiz-ku, otaxon!
Oshnalarning navbatdagi gashtagi siznikidami?

– Yo'q, muallim, zo'r kitoblar sotib oldim.
– A? Hm, qanchaga tushdingiz endi?

– Besh yuz mingga...
– O'h-ho! O'zingiz bir pensioner bo'lsangiz, nima zaril sotib olib kitob o'qish. Undan ko'ra, nevaralarga ul-bul olsangiz bo'lmaydimi? Yana zil-zambil qilib tizzangizga qo'yib kelayotganingizni qarang. Yukxonaga tashlab qo'ymaysizmi, kelardi shu yoqdayam.

– Bo'lmaydi, muallim! Betga aytganning zahri yo'q: kitobni ko'tarib belimam, oyog'imam og'rimadi, lekin gapingizdan yuragim og'ridi. Siz adabiyotdan dars beradingiz, shekilli, a?! Mana, nimaga bizdan Abdulla Oripov chiqmaydi, uka...
– Boboqulning dami ichiga tushib ketdi. Uyiga yetmasdan, qishloq boshida g'ulduranancha xayrlashib tushib qoldi.

Haydovchi yigit: "Ota, xaltangizni o'rindiqqa qo'yib ketavering, uygacha hali bor-ku", dedi. Mayli, bahonada oyog'im uvishgani yoziladi, deb o'yladim. Lekin shu payt hozirgina shu joyda kitobsevmas adabiyot muallimi o'tirgani esimga tushib ketdi..."

BOZORGA CHIQQAN JURNALLAR

Bu voqeani ijodkor ukalarimizdan biri aytib bergandi.



AJAB HANGOMALAR

"Har yakshanba ota qishlog'imga borish odatim bor. Ayniqsa, chekkada joylashgan bo'lsa-da, gavjum bozorini aylanib zavqlanaman. Bir gal deng, aylanib yurib ziravorlar sotadigan tog'lik ayol rastasida turgan yap-yangi, taxi buzilmagan jurnallarni ko'rib, hayron bo'ldim.

– Xola, manov jurnallar markazdagi "kiosk"da ham topilmaydi. Bizning bozorga chiqib ketibdimi? Qayerda sotyapti? – deb so'radim.

– Ey, qayoqda! Hozirgina huv anovi yigit o'n besh ming so'mlik oshlik evaziga tashlab ketdi, – deya qassobdan go'sht xarid qilayotgan, to'rt oy avval maktabga direktor etib tayinlangan Sobirni ko'rsatdi.

Ko'zlarimga ishonmadim. Begona bo'lsa ham mayli edi, Abdusalom tog'amizning o'g'li-da bu xumpar. Pochtachi yukim yengillasin, deb jurnallarni direktorga berib qo'ya qolgan. Bizning tog'avachcha ham shu niyatda davlat tekinga yetkazib berayotgan, maktab kutubxonasi uchun kelgan jurnallarni bozorga tashlab keta qolgan. Aftidan, "Kerakli toshning og'iri yo'q", degan maqolni boshqacha

tushungan ko'rinadi. Zirachiga ellik ming berib, jurnallarni qaytarib oldim. Sobir direktorning yoniga bordim.

– Iye, taraddudning kattasi-ku, direktor tog'a?

– Ertaga maktabga komissiya kelarmish, shunga tayyorgarlik...

– Bozorligingiz ham, bozoringiz ham zo'r ekan, hatto mana bunday noyob "tovar"lar ham sotilarkan. O'sha komissiya kutubxonaga kirib, bepul tarqatilayotgan nashrlarni so'rab qolsa, nima qilaisiz? Bu ko'rib qolganimiz, boshqa gaplar chiqib ketsa... yana o'zingiz ham bozorga chiqib ketmang...

Kechqurun shaharga qaytmoqchi bo'lib turganida, Abdusalom tog'am kirib keldi. Miriqib suhbat qurdik. Nihoyat, qaytar chog'ida tog'am ohista dedi:

– Endi, jijan, Sobirboy bir nodonlik qilbdi, o'ziyam mendan oladiganini oldi. Anovi gap "tepa"ga yetib borib qolmasin. Men o'g'limga aytdim, oyilgi tushsa, hali davlat bermasa ham, o'qisa foyda beradigan jurnallarga obuna bo'lib keladi.

Qishloqdan shunday savdolar bilan qaytdim..."

SO'RAMASA... O'QIMAYDI!

Nihoyat, bir necha oydan beri keng muhokamalarga sabab bo'lgan O'zbekiston xalq yozuvchisi Xayridin Sultonning "Yaldo kechasi" romanini o'qib bo'ldim. Taassurotlarim ichimga sig'may, universitetda dars beradigan dotsent do'stinga qo'ng'iroq qildim.

– Og'ayni, "Yaldo kechasi" juda zo'r ekan. O'ziyam odamni sel qilib yuborar ekan, "Munojot" kuyiga o'xshab.

– Nima u "Yaldo kechasi", aka? Hikoyami, podkastmi?

– Nahotki, shunday roman yozilganidan bexabarsiz?

– Endi, tirikchilik tashvishi... Ilmiy ish, ma'ruza, sessiya deganlaridam... Yelib-yugurib yuribmiz-da.

– Sizing tirikchilingiz filologiya, adabiyot-ku! Falokat bosib, darsda biror talaba shu asar haqida so'rab qolsa, nima deysiz, domlajon?

– Yo'g'e, so'ramas. Biz bilmagan, yoshlar qayerdan biladi bunaqa kitobni?

– Siz o'zi ijtimoiy tarmoqlarni ko'rasizmi? Kitobxonlik sahifalarida quloq-quloq taqizlar chiqiyapti.

Facebookda bir-ikkita qizning postini ko'rgandim, shu sizlarda o'qiydiyov... Qolaversa, bugungi adabiy jarayondan boxabar bo'lishingiz lozim. Axir, Falonchiyev degan nomingiz bor...

– Bo'lmasa, o'g'illardan birini yuborsam, o'sha kitobni berib yubora olasizmi?

– Yo'q, berolmayman! O'qish uchun avval keliningiz, keyin o'g'il-qizlar, nabiralar navbat kutib turibdi.

– Shunchalik zo'r asarmi?

– "O'tkan kunlar"ga ilova! Qodiriy tilidan yozilgan. Shu ikkita gap yetadimi?

– Hm, ha bo'ldi, do'konlardan so'ratamiz. Do'konning manzillini ayting!

– Hovlingizning orqasida, "Besh qozon" oshxonasi poygagida...

O'rolboy QOBIL



Hozirgi yoshlar

Boshlanishi 1-sahifada.

Mazkur maktabga xalqimizning suyuqli shoiri Erkin Vohidov nomi berilishi bejiz emas. Bu yerda o'qiyotgan o'quvchi yoshlar zimmasiga adabiyotni chuqur o'rganish bilan birga erkin fikrlash va badiiy tafakkurni yuksak darajada rivojlantirish, qolaversa, ulug' shoir izdoshi bo'lish mas'uliyati ham yuklangan.

Ma'lumki, so'nggi yillarda ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida o'zaro sog'lom raqobat shakllangan bo'lib, sifat va natijadorlik asosiy mezonlarga aylandi. Ayni jarayonda Erkin Vohidov nomidagi ijod maktabi o'zining o'sish sur'atlari va aniq natijalari bilan e'tiborga tushmoqda. Jumladan, o'quvchilar soni va bitiruvchilar dinamikasini solishtiradigan bo'lsak, 2020–2026-yillar kesimida maktabda bilim olayotgan o'quvchilar soni 144 nafardan 252 nafarga oshgani ham aholi orasida ushbu maktabga ishonch va talabning ortayotganini ko'rsatadi. Maktab tashkil etilgan yili 22 nafar bitiruvchi oliy o'quv yurtlariga yo'naltirilgan bo'lsa, bugunga kelib bitiruvchilar soni 35 nafarni tashkil etmoqda.

Maktabda 2026-yil 15-yanvar holatiga ko'ra, 180 nafar o'quvchi turli xalqaro va milliy sertifikatlarga ega bo'lib, bu ko'rsatkich maktabni tizimdagi yetakchi ijod maktablari qatoriga olib chiqdi. Bunday yuqori natijada ta'lim dargohining 63 nafar pedagoglar jamoasining munosib xizmati bor. Adabiyotga shaydo yoshlar jahon andozalariga mos sharoitda tajribali va ijodkor ustozlar qo'lida ta'lim-tarbiya olmoqda.

Maktabda 11 ta o'quv xonasi, 230 o'rinni oshxonada, 24 o'rinni informatika xonasi va 240 o'rinni yotoqxona hamda 4000 dan ortiq badiiy, ilmiy kitoblar jamlangan kutubxona mavjud. O'quvchilar uchun "Tasviriy va raqamli san'at", "Kompyuter grafikasi", "Audiovizual asarlarni yaratish va qayta ishlash", "Veb-dizayn", "Teleradijurnalistika", "Drama" kabi to'garaklar faoliyati yo'lga qo'yilgan, ularga viloyatning ko'zga ko'ringan mutaxassislari jalb etilgan. O'quvchilar o'qish, o'rganish qatorida ijodiy qobiliyatlarini ham sinab ko'rmoqdalar. O'quv maskanida joriy fanlar bilan bir qatorda arab tili, notiqlik san'ati va nutq madaniyati bo'yicha ham alohida darslar belgilangan.

O'quvchilar qobiliyatini o'stirish maqsadida "O'zbekim" radiosi, shu nomda oynoma va milliy sertifikatlarga ega bo'lib, bu ko'rsatkich maktabni tizimdagi yetakchi ijod maktablari qatoriga olib chiqdi. Bunday yuqori natijada ta'lim dargohining 63 nafar pedagoglar jamoasining munosib xizmati bor. Adabiyotga shaydo yoshlar jahon andozalariga mos sharoitda tajribali va ijodkor ustozlar qo'lida ta'lim-tarbiya olmoqda.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tomonidan nashr qilingan "Ijod bog'idan guldasta" nomli yillik to'plamda maktabning 40 nafar o'quvchisi ijod namunalari bilan qatnashdi. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining "Birinchi kitobim" loyihasida yosh qalamkashlar Gulnora Hoshimjonova, Muxlisa Haydarovanning ilk to'plamlari nashr etildi. Maktabning yana bir iste'dodli o'quvchisi Dilobar Abdufatohova respublikamizdagi barcha ijod maktablari o'rtasida o'tkazilgan "Duel" she'riyat tanlovida faxrli ikkinchi o'rinni qo'lga kiritdi. Maktabning 10-11-sinf o'quvchilari Ibadatxon Nosirjonova, Shahlo Safarova, Mirjalol Safarov, Dilobarxon Abdufatohova, Fazliddin G'ulomjonov Zomin an'anaviy yosh ijodkorlar seminarida ishtirok etgan. Bular – adabiyot yo'nalishidagi muvaffaqiyatlar.

Fanlar bo'yicha yutuqlar ham bisyor. Maktab o'z bitiruvchilarining OTMga kirish ko'rsatkichi bo'yicha 10 mingdan oshiq maktab va litseylar orasida 175.03 ball bilan respublikada uchinchi, viloyat miqyosida birinchi o'rinni egalladi. 34 nafar bitiruvchining barchasi milliy va xalqaro sertifikatga ega bo'lgani, bir guruh o'quvchilar muddatidan avval talabalik rufasini olgani ustozlar jamoasini cheksiz quvontirdi.

– Har chorakda ichki monitoring o'tkazamiz, – deydi Muhammadsiddiq Alijonov. – Monitoring ijodiy va ilmiy imtihonni o'z ichiga qamrab oladi. O'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilar maktabdan chetlatiladi. O'quvchilar bepul yotoqxona bilan ta'minlangan. Besh mahal ovqat beriladi, albatta, davlat hisobidan. Bitiruvchilar pedagogika yo'nalishida istalgan oliy ta'lim muassasasiga shartnoma asosida qabul qilinish imkoniyatiga ega. Viloyatdagi asosiy adabiyot kunlari, ijodiy olimpiadalar, turli tanlovlar ham maktabimizda bo'lib o'tadi.

Ha, bugun ta'lim tizimiga e'tibor katta. Tizim davlat va jamiyat talabidan kelib chiqqan holda, jadal o'zgarishlar bosqichida, deb aytish mumkin. Mavjud ijod maktablari tafakkuri keng shaxslarni yetkazib berish, iste'dodli o'g'il-qizlarni dunyo miqyosidagi yetuk ijodkorlarga aylantirish hamda yosh avlodning milliy va ma'naviy tarbiyasini mustahkamlash uchun xizmat qiladi.

Jahon tajribasida ijod maktablari yo'q emas. Ammo ular asosan san'at, musiqa va kreativ qarashlarni rivojlantirish asosida tashkil etilgan. Mamlakatimiz ijod maktablarining bosh vazifasi esa millat qadriyatlarini, tarixi, tili va ma'naviyatini o'quvchilar ongiga singdirishdan iborat. Shu bois, ularda o'zbek tili chuqur o'rganiladi, milliy qahramonlar va ulug' allomalar ma'naviy merosi targ'ib qilinadi, milliy g'urur va o'zlikni anglash shakllantiriladi. Xususan, so'lim Farg'onada tashkil etilgan va xalqning Qahramon shoiri nomi bilan atalgan ijod maktabi barmoqlari tutgan qalam bilan kelajakni yozadigan avlodni kamolga yetkazayotgan iste'dod ustaxonasidir.

Bugun ushbu ijod maktabida ijod ham, hayot ham qaynamoqda. Ta'lim tarbiya bilan uyg'un. Muhimi, maktab o'z o'quvchilari qo'lga yorug' manzillarga yo'llanma tutqaza oladi. Muvaffaqiyatlarini esa kelajak, albatta, ko'rsatadi.

Muhayyo RUSTAMOVA



ULUG'BEKNI ARDOQLAGAN CHEX ASTRONOMI



Yozef SEKORA

Boshlanishi 1-sahifada.

1895-yildan 1904-yilga qadar bu lavozimda Vsevolod Stratonov ishlagan. 1905-yilda uning o'rniga chex astronomi Iosif Sekora kelib, 1911-yilgacha faoliyat olib borgan.

Iosif Sekoraning faoliyati, jumladan, Toshkentdagi hayoti haqida bir qancha maqolalar yozilgan. 2013-yilda Toshkent astronomik observatoriyasining 140 yilligi munosabati bilan arxiv materiallariga murojaat etdik. Hujjatlar orasida "Toshkent astronomik va fizik observatoriyasi tarixidan qaydlar"ni topishga muvaffaq bo'ldik. Umumiy hajmi 184 sahifalik qo'lyozma 1910 – 1923-yillarda observatoriyada izlanish olib borgan va Sekorani shaxsan bilgan N.F.Bulayevskiy tomonidan yozilgan.

2014-yilda Chexiya akademiyasi xodimi doktor Kirill Ronga murojaat qilib, arxivlardagi Sekoraga oid materiallarni yuborishini so'radik va ayrim manbalarni olishga muvaffaq bo'ldik. Ayni paytda O'zFA Astronomiya instituti kutubxonasida Sekoraning 1911-yildan butkul pedagogik ishga o'tguniga qadar nashr ettirgan deyarli barcha asarlari mavjudligini ta'kidlash lozim. Olimning maqolalari bilan tanishuvimiz uning fanga qo'shgan hissasiga oid ayrim xulosalarni oydinlashtirish imkonini berdi.

Iosif Sekora 1870-yil 16-yanvarda Xarkov shahri gimnaziyalarida qadimgi (lotin, grek) tillarni o'qitish uchun taklif etilgan chex pedagogining oilasida tug'ilgan. 1892-yilda Xarkov universiteti fizika-matematika fakultetini tugatgach, oliy o'quv yurti huzuridagi observatoriyaga ishga kiradi. Shu davrdan astronom sifatidagi samarali faoliyati boshlangan.

1899–1901-yillarda Shpitsbergenda gradusli o'lchashlar o'tkazish bo'yicha Rossiya-Shvetsiya ekspeditsiyasidagi ishtiroki Sekoraning ilmiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etgan. Ishtiroki uchun u maxsus orden bilan taqdirlangan va unga yiliga 200 so'mdan umrbod nafaqa tayinlangan.

TOSHKENT OBSERVATORIASIDA

Iosif Sekora 1905-yilda Toshkentga kelganida astronomik kuzatuvlar, hatto Shpitsbergenda qutb yog'dusi spektrlarini suratga olishdek murakkab amallarni bajarish bo'yicha katta tajribaga ega edi.

Olimning Toshkentdagi faoliyati davri ilmiy masalalarning keng qo'llanilishi bilan xarakterlanadiki, ularni hal etishda kuzatuvchining asbob-uskunalarini yasash va takomillashtirish salohiyati namoyon bo'ldi. Sekoraning sa'y-harakatlari bilan O'zbekistonda seysmik tadqiqotlar rivoj topdi. U o'z oldiga Toshkentda seysmik stansiyalar tarmog'ini barpo etish vazifasini qo'ydi, zero, o'sha vaqtlarda shaharda birgina seysmik stansiya ishlab turardi. Ko'p o'tmay olimning faol ishtirokida qo'shni mintaqalarda ham shunday stansiyalar barpo etildi. U hatto, seysmograf yasagan va 1907-yil 21-oktyabrdagi Qoratog' zilzilasi shu apparatda qayd etishga muvaffaq bo'lgan. 1911-yilda Toshkent observatoriyasida seysmolog lavozimini ta'asis qilinib, bir vaqtda Samarqand va O'shda yangi seysmik stansiyalar barpo etilgan.

Astronomiya Sekora uchun hammasidan qiziqarliroq soha edi. U 1905-yildan 1911-yilgacha bo'lgan ilmiy tadqiqotlarini "Toshkent astronomik observatoriyasi asarlari"ning ikki jildida nashr ettirdi (1910, 1913).

"UCHAR YULDUZ"LAR TADQIQOTCHI NIGOHIDA

XX asr boshlari yorqin kometalarga boy bo'ldi. Bu, shubhasiz, o'sha yillarda Toshkent astronomik observatoriyasining kuzatuvlar dasturida o'z ifodasini topdi. Mana, Iosif Sekora kuzatgan va mufassal bayon etgan kometalar ro'yxati: 1907 IV (Daniel), 1908 III (Moxkuz), 1910 I (Katta janub kometa) va mashhur Galley kometa 1910 II (IP/Halley).



Iosif Sekora astronomik kuzatishlar olib borgan fransuz teleskopi. Toshkent astronomiya observatoriyasi hududida 1895-yilda ishga tushirilgan.

Sekora normal astrograf ($D=330$ mm, $F=3436$ mm) va uning turbasiga mustahkamlangan Seyss firmasining planar yorug'lik kuch ($1:3.6$) kamerasi yordamida kometalarni suratga tushirdi. U olgan suratlarining aksariyati yuqori darajada sifatligi bilan ajralib turardi.

Galley kometasida olib borgan kuzatishlari xususida alohida to'xtalib o'tish joiz. Ushbu kometa davriylik qisqa bo'lib, 75-76 yildan iborat. 1835-yildagi ko'rinishi davridan e'tiboran fotografiya astronomik kuzatishlar amaliyotidan mustahkam o'rin oldi. Bino-barin, 1910-yilda Galley kometasining paydo bo'lishi ilk bor fotoplastinkalarda muhurlandi.



1907-yil 1-yanvarda Chernyayeva stansiyasi yaqinida quyosh tutilishini kuzatish.

Shunisi diqqatga sazovorki, Galley kometa 1985-1986-yillarda ko'ringanida ham Toshkent normal astrografi yordamida suratga olingan. Qolaversa, O'zbekistonda o'sha davrda Kitob shahrida o'rnatilgan Seyss qo'shaloq astrografida ham suratga olinardi.

Kometa orbitasini aniqlashtirish hamda nisbatan yaqin masofadan ilmiy asbob-uskunalar yordamida Galley kometasini o'rganish uchun uchirilgan "Vega-1" va "Vega-2" sovet kosmik apparatlari, Yevropaning "Jatto" hamda yapon "Sakigake" va "Suisey"lari trayektoriyalarini to'g'rilashni ta'minlash maqsadida har ikki teleskop kometalarni patrullash xalqaro dasturiga kiritilgan. Galley kometasini quruqlikdagi kuzatish dasturi byulleteniga ko'ra, O'zFA Astronomiya instituti Galleyning makondagi 267 aniqlangan holatini taqdim etib, dasturda ishtirok etgan jahonning yuzdan ziyod observatoriyalari orasida birinchi o'rinni olishga muvaffaq bo'ldi.

Ushbu kometaning 1910-yildagi paydo bo'lishi masalasiga qaytsak. O'sha vaqtlarda jahonning ko'pgina observatoriyalarida

noyob hodisa – "uchar yulduz"ning quyosh gardishi fonidan o'tishini kuzatishga katta tayyorgarlik ko'rilgan. Bu hodisa 18-martda ro'y berishi lozim edi. Toshkent astronomik observatoriyasida ham Sekora rahbarligida bu borada faol ish olib borilgan. Bunda o'tgan yillardagi kometa kuzatuvlari juda asqotdi. Hodisani uchta teleskop yordamida kuzatish rejalashtirildi: Bulayevskiy 6 dyumli teleskopda, Davidov 5 dyumli Seyss turbasida, Sekoraning o'zi esa mazkur hodisani normal astrograf minorasining ichiga o'rnatilgan 3 dyumli turba yordamida kuzatishni rejalashtirdi. Shu yerning o'zida maxsus chodir tikdi. Bu g'oyat mohirona

kutilgan natija edi, zero, ilgari bunday hodisani kuzatishga intilganlarning biron-tasi ko'ngildagidek natijaga erisha olishmagan. Buni qarangi, Sekora ayni shu vazifani uddalashga muvaffaq bo'ldi. Bu esa olimning haqiqatda mohir kuzatuvchi-astronom bo'lganini ko'rsatadi. Aqalli uning oddiy asbob-uskunalar bilan qutb yerining murakkab va og'ir sharoitida qutb yog'dusini suratga olganini eslaylik. Qolaversa, hamkasblaridan farqli o'laroq, o'zi o'ylab topgan sharoitda – qorong'i chodir ichida kometa o'tishini kuzatishi ham tahsinga sazovordir.

METEORLAR KUZATUVI

Toshkentda meteorlar kuzatuv borasida Sekoradan o'tadigan yo'q edi. Ta'kidlash joizki, Toshkent observatoriyasi meteorlar kuzatuv rasmiy kuzatuvlar dasturiga kiritilgan sanoqli rasadxonalardan biridir. 1883-yildayoq I.Pomerantsev P.Zalesskiy bilan hamkorlikda Pons kometa bilan bog'liq meteor oqimini kuzatishgan. Bu mavzu Sekora uchun yangilik emas edi. Yurev observatoriyasida ishlash asnosida u meteor oqimlarini kuzatishda kichik yorug'lik kuchiga ega kameralar hatto astrograffardan ham ancha samarali ekani haqida xulosaga kelgan.

U 1906-yilda meteorlarni kuzatish uchun bir necha o'nlab kilometr masofalarda, Toshkent astronomik observatoriyasida, Iskandar qo'rg'oni va Chimyonda muhim punktlar barpo etdi. Toshkent astronomik observatoriyasi va Chimyondagi punktlarni SF=1:3, Iskandar qo'rg'onidagi punktlarni 1:3.5 kameralari bilan jihazladi. Ushbu maskanlarda kuzatuv olib borib, 22 ta fotoplastinkada meteorlarning 11 ta suratini olishga muvaffaq bo'ldi. Xususan, 1909-yil 11-avgustda bir vaqtning o'zida uchta



Shuhrat EGAMBERDIYEV, akademik

punktida meteorlarni suratga olishdek tarixida ko'z ko'rib, quloq eshitmagan darajada g'oyat muhim holat ro'y berdi.

Sekora meteorlar balandligini fotosuratlar bo'yicha aniqlash usulini ishlab chiqib, amaliyotda qo'llay boshlagan. Uning metodlari P.Savitskiy tadqiqotlarida yanada rivojlantirildi. U 1926-yilda 386 ta meteorning balandliklari haqidagi ma'lumotlarni nashr ettirdi. Ayni vaqtda Toshkent astronomik observatoriyasida N.Sitinskaya ham meteor masalasi bilan shug'ullana boshlagan. U Sekoraning fotosuratlarini qaytadan ishladi, 1909-yil 11-avgustda Sekora dasturi bo'yicha bir vaqtning o'zida uchta punktida tasvirga tushirilgan bolid suratlarini 1936-yilda nashr ettirgan o'z ishida qiymatiga yetkazib, bolid yorug'ligi o'zgarishining aniqlangan qiymatlarini chiqardi.

Sekora meteorlar yorug'ligi chayqalishini zarralarning to'zishi bilan emas, balki gazlarning kengayishi bilan izohladi. Bu taxminning haqiqatligi 1935-yilga kelib meteorlarni spektral kuzatishlar asosida tasdiqlandi. U meteorlarni ular yorug'ligining o'zgarishi bo'yicha "sokin" va "portlovchi" deb tasniflashni taklif qildi.

IOSIF SEKORA SHAXSIYATI

Olim shaxsiyatiga oydinlik kiritish imkonini beradigan birdan bir manba Bulayevskiyning yuqorida tilga olingan qaydlaridir. Unda shunday yoziladi: "U o'zining jiddiy ko'rinishiga qaramay, juda ko'ngilchan, ta'sirchan, lekin qobiliyatli va serg'ayrat... U dilkash, suhbatlarda o'z tajribalarini baham ko'radigan bag'ri keng inson edi. Undan ko'p narsani, xususan, laboratoriya astrografida ishlashni o'rganish mumkin edi".

Bulayevskiyning qayd etishicha, Iosif Sekora fortepianoda hazin kuylar chalar, "yoz kunlari u ijro etgan quy meridian zaligacha yetib borar va sizni beixtiyor o'z domiga tortardi".

Sekoraning shaxsiyatini ifodalovchi muhim jihatlardan yana biri uning pedagoglikka rag'batli kuchliligidir. Bu xususiyat atasiidan o'tgan. Olim 1911-yilda ilmiy faoliyatini nihoyasiga yetkazib, qolgan umrini pedagoglikka bag'ishlaydi. Dastlab Toshkent ayollar gimnaziyasini boshqaradi, keyinroq Litvaning Shavel gimnaziyasiga o'tadi. O'z vazifasiga jiddiy munosabatda bo'lgani, fidoyiligi sabab unga tez-tez nufuzli lavozimlar taklif qilinardi.

1918-yilda Chexoslovakiya korpusida isyon ko'tarilganidan keyin sovet hukumati mamlakatdan barcha chexlarni chiqarib yuborgan. 1921-yilda navbat Sekoraga yetib keldi. Rossiya fani va maorifi oldidagi xizmatlariga qaramay, uni ham "qora ro'yxat"ga kiritishgandi...

Olim o'zining butun ilmiy faoliyati davomida 80 dan ziyod ilmiy va ilmiy-ommabop asarlar yaratdi. Ana shu asarlarning aksariyati hammualliflarsiz yozilganligi ishning barcha jarayonlari, shu jumladan, kuzatishlar, ma'lumotlar tahlili va ishlanmalar, maqolalar yozish o'zining zimmasida bo'lganidan dalolat beradi.

Ha, Iosif Sekora haqiqatdan fidoyi tadqiqotchi bo'lgan. Uning qalamiga mansub asarlar olim ilmiy qiziqishlari doirasining kengligi, shuningdek, qutb yog'dulari, kometa va meteorlar, quyosh tutilishlari singari tez o'tadigan, tasodifiy hodisalarga yuksak layoqatidan dalolat beradi.

MIRZO ULUG'BEKKA EHTIROM

Iosif Sekora 1910-yil noyabr oyida Rossiya astronomiya jamiyati va ilmiy jamoatchiligi hamda Turkiston aholisiga Mirzo Ulug'bekka haykal o'rnatish uchun mablag' ajratish bo'yicha murojaat etgan.

1911-yil 7-mart kuni Imperatorlik Rossiya geografiya jamiyati Turkiston bo'limining majlisida Sekora "Ulug'bek yodgorligi haqida" ma'ruza qilgan. U o'z ma'ruzasida katta bilimga ega bo'lgan kuzatuvchi astronom sifatida nafaqat Samarqand rasadxonasining usturlobini tavsiflab berdi, balki bu yerda saqlanib qolgan obidalarni ehtiyotlash choralarini ko'rishga da'vat etdi. Mirzo Ulug'bek barpo etgan rasadxona uning o'zi uchun qurilgan abadiy yodgorlik ekanini ta'kidladi.

Iosif Sekora umrining eng sermahsul davri Toshkent astronomiya observatoriyasi bilan bog'liq holda kechdi va bu muassasa tarixida yorqin iz qoldirdi.



OLAM OLIMI



Oliver SMITIS

inson genomi sirlariga kalit topgan nobelchi

PESHQADAM

Zamonaviy molekulyar biologiya va biotibbiyot rivojida genetik olim Oliver Smitisning (1925–2017) xizmatlari beqiyos. U genetik muhandislik poydevori hisoblangan "gene targeting" (genlarni nishonga olish/yo'naltirilgan mutatsiya) texnologiyasini ishlab chiqqan ilk olimlardan biri sifatida irsiy kasalliklarning molekulyar tabiatini o'rganish va ularni gen terapiyasi orqali davolashda yangi davrni boshlab berdi.

HAYOT VA TA'LIM

Oliver Smitis 1925-yil 23-iyunda Angliyaning Galifaks shahrida tug'ilgan. Ilm-fanga qiziqishi bolalikdagi radio va astronomiyaga bo'lgan ishtiroqidan boshlangan. Oksford universitetida tahsil olib, biokimy bo'yicha ilmiy daraja (DPHil – Doctor of Philosophy) olgan.

1953–1960-yillarda Toronto universitetida faoliyat yuritib, oqsillarni ajratishning inqilobiy usuli – kramal geli elektroforezini ishlab chiqdi. So'ngra Viskonsin–Medison va Shimoliy Karolina universitetlarida tadqiqotlarini davom ettirdi.

ILMIY YUTUQ

Smitisning eng muhim ilmiy yutug'i – "gene targeting" texnologiyasidir. Bu usul gomologik rekombinatsiya mexanizmi asoslangan bo'lib, tirik organizm genomining istalgan nuqtasidagi ma'lumotni yuqori aniqlikda tahrirlash imkonini beradi. Jarayonning mohiyati quyidagicha: maxsus tayyorlangan DNK bo'lagini hujayraga kiritish, hujayraning o'z rekombinatsiya tizimi yordamida muayyan genni "nishonga olish" va uni yangi (o'zgartirilgan) nusxa bilan almashtirish.

Ushbu kashfiyot asosida yaratilgan "genetik nokaut" usuli yordamida olimlar diabet, saraton va yurak-qon tomir kasalliklarining irsiy mexanizmlarini laboratoriya sichqonlarida modellashtirish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

XALQARO E'TIROF

2007-yilda Oliver Smitis fiziologiya yoki tibbiyot bo'yicha Nobel mukofotini Mario Kapekki va Martin Evans bilan birgalikda qabul qildi. Ularning tadqiqotlari embrional poya hujayralari yordamida genlarni nishonli o'zgartirishning (gene targeting) ilmiy asoslarini yaratib, molekulyar biologiya va eksperimental tibbiyotni yangi bosqichga olib chiqdi.

Olimning ishlanmalari bugungi kunda quyidagi yo'nalishlarda muhim ahamiyat kasb etmoqda:

- gen terapiyasi – mutatsiyaga uchragan genlarni sog'lom nusxalar bilan almashtirish yoki ularning funksiyasini tiklash;
- onkologiya – saraton hujayralaridagi irsiy o'zgarishlarni molekulyar darajada o'rganish va maqsadli (target) davolash usullarini ishlab chiqish;
- biotexnologiya va farmatsevtika – kasalliklarning genetik modellarini yaratish hamda yangi dori vositalarini sinovdan o'tkazish.

Uning metodlari zamonaviy genom tahrirlash texnologiyalari, jumladan, mashhur CRISPR/Cas9 tizimining nazariy va amaliy poydevorini tashkil etdi.

"HARAKAT QILAYOTGAN QO'L"

Smitis zamondoshlari tomonidan kamtar va mehnatsevar olim sifatida e'tirof etilgan. U ko'p tajribalarini shaxsan o'zi amalga oshirgan va ayrim laboratoriya jihozlarini ham o'z qo'li bilan yasagan. Uning fikricha, haqiqiy ilm faqat "harakat qilayotgan qo'l" va "o'ylayotgan miya"ning uyg'unligida yaratiladi.

Oliver Smitisning kashfiyoti biologiyani "kuzatish ilmi"dan "boshqarish san'ati"ga aylantirdi. Uning ishlari genom tahriri va irsiy kasalliklar terapiyasida butun dunyo ilm-fani uchun yo'l ochdi. Smitis nafaqat Nobel mukofoti sohibi, balki insoniyatning genetik kelajagiga yo'l boshchi bo'lgan buyuk olimdir.

Jasmina ISROIL tayyorladi.

UYG'OQ SO'Z

Joriy yilning 21-aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi mas'ul xodimlari, Madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekov, Yozuvchilar uyushmasi raisi Sirojiddin Sayyid va taniqli ijodkor ziyolilar ishtirokida davra suhbatini bo'lib o'tdi. Suhbatning asosiy mavzusi ziyolilarni tashvishga solayotgan, adabiyot va san'at rivojiga to'g'anoq bo'layotgan muammolar atrofida aylandi.

Insoniyat tarixidagi har bir davrni ta'rif-tavsif etmoq uchun odatda ikki savol beriladi: "Qanday inshootlar bunyod etildi?" va "Qanday olimlar, shoir-u fozillar yashadi?" Birinchi savol jamiyatning moddiy farovonligi, iqtisodiy barqarorligining darajasini belgilasa, ikkinchisi o'sha davr ma'naviy-ruhiy qudrati, aqliy salohiyatini namoyon etadi. Zero, tarix shunchaki voqealar yig'indisi emas, u xalqlarning tafakkur qudrati solnomasi, ajdodlarning ma'naviy merosi. Ana shu meros bo'lmasa, millat g'ofil olomonga aylanishi hech gap emas. Mo'tabar merosning vorisi, muhofizi va boyitgan, takomilga yetkazgan holda avlodlarga yetkazuvchisi – muhtaram oydinlar.

Ziyolilik, aslida, juda zalvorli rutba. Ziyo – nur, yorug'lik, demak. Taassufki, bugun "ziyoli" so'zi salmog'ini yo'qotayotdi. Dorilfunun diplomini olgan – ziyoli. Jamoat tadbirlarida kiftini keltirib nutq irod etgan – ziyoli. Har zamonda televizorda ko'rinish berib turadigan – ziyoli... Ammo o'sha diplomli so'z zamol millat qismati, mamlakat taqdiriga doxil muhim pallalarda qay so'zi-yu qay amali bilan o'rnak bo'ldi, degan savol ko'p holda javobsiz qoladi. Xatarli jihati, pirovardida bu toifa jamiyatni serko'pik hovuzga aylantiradi – sirtida teran ko'rinsa ham, aslida o'ta sayoz, o'ta yuzaki...

MUDROQ VA UYG'OQ VIJDON

Chin ziyolini tashqi belgi-alomatlari – kiyinishi, xatti-harakati, nutqi bilaningina emas, balki so'zi, niyati va amallari uyg'unligi orqali tanish mumkin. Sirasini aytganda, ziyolining bosh belgisi – vijdon uyg'otilgisi! Tarix, xalq va Haq oldida mas'uliyatni his qilib yashash – uning azaliy va adabiy qismati.

Nazarimizda, ziyolining ma'naviy portreti to'rt asosiy rang bilan chiziladi. Birinchisi – halollik, ya'ni hayotning har bir jabhasida adl-u insof chegarasida sobit turmoq, o'ziga ravo ko'rmagan narsadan o'zgalarni ham muhofaza etmoq. Ikkinchisi – jasorat, ya'ni haqiqatni o'z vaqtida, birovingiz izzat-nafsiga tegmay ayta olmoq. Uchinchisi – shaxsiy o'rnam, ya'ni maslak va e'tiqoddan og'ishmaslik bobida namuna bo'lmoq. To'rtinchisi – olijanoblik, ya'ni ezu ishlarini shaxsiy manfaat ko'zlamay, el-yurt foydasi uchun xolis bajarmoq. Bu to'rt rangdan biri kam ishlatilsa yoki topilmasa, butun portret manzarasi buziladi, ko'zlangan murod hosil bo'lmaydi.

Ziyoli qavmi siyosat ahlining tanlagan yo'lga ko'ra, yo eng ahamiyatli, yo noqulay qattam bo'lib kelgan. Binobarin, haqiqiy ziyoli jamiyatning yutuq va kamchiliklarini ko'zgu kabi o'z ijodida namoyon etadi. Binolar va rang-tasvir asarlaridagi manzaralar, badiiy asar qahramonlarining ichki dunyosi, she'rlarda ifoda etilgan ma'nolar ko'lami o'sha davr jamiyatining orzu va armonlari, quvonch va qayg'ulari, inonch va topinclarining in'ikosi, asli. Bu haqiqatni teran anglagan odil hukmdorlar zamondosh oydinlarni ko'llab-quvvatlagan bo'lsa, zo'ravon-u zolimlar ziyoli ahlining ovozi o'chirmoqqa harakat qilgan.

Ulug' murabbiy – tarix shunday saboq beradi: siyosat va ijod qarama-qarshiligida hamisha, har doim siyosat mag'lub bo'ladi. Hattoki oydinlar jismonan mahv etilsa-da, o'z o'lmi bilan qattol tuzum ustidan ma'nagan'alaba qozonadi. Neron, Torkvemada, Stalin... bularning hammasi o'z davrida g'olib-u muzaffar edi. Nohaq qatl etilgan yozuvchilar, olimlar, san'atkorlar izzat-u hurmat ila, mustabidlar esa tavqil la'nat ila yodga olinadi.

Jamiyat bilan ziyolining munosabati – ota bilan farzand munosabatidek murakkab. Jamiyat ziyolini voyaga yetkazadi, u esa o'zi tarbiya ko'rgan jamiyatga oyna

tutadi. Ko'zgu dagi aks goho jamiyatga manzur keladi, gohida esa mardud. Haqiqat hamisha eshituvchining g'azabini qo'zg'aydi, deydi rimliklar. O'z tanasida raiyat og'rig'ini his qilgan holda aynan o'sha iztirob-u qayg'uli aksni ko'rsata bilish ziyolining eng muhim vazifasi hisoblanadi. O'zini anglamog'i uchun odam o'z galar dardini o'z dardi kabi bilmog'i darkor. O'shanda hazrat Alisher Navoiyning "Odamni ersang demagil odami, Onikim

bo'ladi. Florensiya Uyg'unish davrida Medichi oilasi ma'rifatparvarlarni qanoti ostiga oldi, natijada Leonardo da Vinchi va Mikelanjelolar dunyoni hayratga oshno etdi. Buyuk temuriylar davrida olimlar, shoirlar va me'morlarga izzat ko'rsatildi, natijada dunyoning eng ulug' rasadxonasi insho qilindi, turkiy tiling nafosat-u qudratini namoyon etadigan asarlar yaratildi. Yangi O'zbekiston davrida biz – ziyolilar ana shunday beminnat himmat

tuproq qa'riga kirib, novdalari osmonga bo'yilgan emanni kesib tashlash ham cho't emas. Lekin o'shanday savlat, o'shanday salobatga ega daraxtni joyiga keltirish amrimahol. Noyoblik, nodirlik qonuniyati ana shu.

Kelajak oldidagi mas'uliyatni his etmaydigan "ziyoli" maydon o'rtasidagi emanni kesib, o'rniiga bado tiklamog'ini ko'zlagan buyurtmachidan farq qilmaydi. "Dam bu damdir, o'zga damni dam dema"ni shioriga aylantirgan kimsalar uchun, ustoz adib Erkin Azam ta'biri bilan aytganda, "hoziyrlar" uchun ziyo bilan ziyonning farqi yo'q.

VATANPARVAR ZIYO LI QANDAY BO'LADI?

Zabardast adib Chingiz Aytmatov "Asrga tatigulik kun" romanida qalamga olgan manqurt obrazi XX asr adabiyotidagi eng yorqin obrazlardan biri hisoblanadi. Manqurt Jo'lamon o'z tarixi, nasl-nasabi, vatani, hatto volidasini-da unutgan bir kimsa. Adabiyotshunoslikda mazkur obraz turlicha talqin etiladi. Ayrim olimlar manqurt personajini yagona sovet xalqini yaratish bahonasida yuzlab xalqlarni o'tmishi, tarixi, tili-yu tutumlaridan begonalash-tirish, "katta og'a" sanalgan millatning buyruqlarini so'zsiz ado etadigan to'daga aylantirish siyosatiga qarshi isyon deb baholaydi. To'g'ri, sovet hokimiyati va uning yakkaboshlik g'oyasi barham topdi, lekin, taassufki, manqurtlik sindromi g'oyib bo'lgani yo'q. Bu illat bugun ham turli shakl-u shamoyillarda bo'y ko'rsatayotir.

Nazarimizda, bu sindromning eng tuban darajasi ilmiy vositay jo'ha aylantirgan, iste'dodi va e'tiqodini, vijdoni va imonini o'tkinchi dunyo matohlariga alishayotgan "ziyoli"larda namoyon bo'ladi. Darvoqe, mansab, martaba yoki boylik evaziga hayotiy prinsiplaridan butkul voz kechadigan ziyolilarning Jo'lamondan bir farqi bor. Boyaqsh Jo'lamon-ku, nima qilayotganini bilmaydi, g'ayriushuuri tarzda noravo ishlarga qo'l uradi. Ammo ziyoli da'vosidagi shaxslar bilgani-anglagani holda yolg'on, egriqlik, xiyonat, ma'siyatni sodir etadi. Gohida shunchaki tomoshabin emas, balki xayrixoh o'laraq, faol hamkor o'laraq "javlon" uradi. Bunday toifa nainki o'zini, unga ergashganlarni ham halokatga yetaklashi, shubhasiz.

Valiylardan bo'lgan Zunnun Misriyning "Agar Alloh taolo bir qavmga musibat yubormoqchi bo'lsa, eng avvalo, o'sha qavm orasidan chinakam olim, ilmiga amal qiluvchi zotlarni terib oladi. Ularning o'rniiga esa chalasavod, imonsiz ahli ilmi keltirib qo'yadi. Ul gumrohlar esa o'zini ham, qavmini ham halokat sari yetaklaydi", degan mazmunda o'giti bor. Demak, millat o'zining chinakam ziyolilari, qutb yulduzlarini tanlab-saralab olishi muhimdir.

Ziyoli va vatanparvar so'zlari har doim baqamti yuradi. "Vatanparvar ziyoli" bu – oddiy birikma emas, balki insoniylikning oliy maqomi. Vatanni chinakam sevish – uning vasfini madh etib, kuylashgina emas. Vatanni sevish – uning kamchiligini ko'ra bilish, uni aytishga jur'at etish va uni isloh qilishga umr baxsh etish demakdir. Biz vatanparvar deganda, eng avval, Vatan uchun jonini fido qilgan mard maydonlarni ko'z oldimizga keltiramiz. Kindik qoni to'kilgan yurtga shirin jonini nisor etganlar ruhiga tahsin va ta'zim! Ayni chog'da, Vatanni sevish – uning uchun nafaqat o'lishga, balki yashashga, butun umrini baxshida etishga tayyor bo'lishdir. Vijdonga sodiq holda yashamoq esa gohida o'limgan-da qiyin – sabot, mehnat, yaratuvchanlik, halollikni talab etadi.

Ziyolining vatanparvarligi u yaratgan asarlarda, tiklagan binolarida, ta'lim bergan shogirdlarida, kamolga yetkazgan farzandi arjumanlarida tajassum topadi. Ulug' ma'rifatparvar Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" kitobini yozar ekan, "Vatanimga xizmat qilayapman", deb da'vo qilmadi, shunchaki ko'nglidagini qog'o'zga to'kdi. Bugun biz Avloniy vatanparvarlarining a'losi deb bilamiz. Chunki uning zahmatida zarracha ta'ma yo g'araz yo'q edi.

Ma'rifatli jamiyatning birlamchi sharti – ziyoli ahlining chinakam vatanparvar bo'lishi. Chinakam vatanparvar ziyoli – halol, jasur, har jabhada shaxsiy o'rnam ko'rsatuvchi, so'zi-yu amali bir inson.

Prezidentimizning har bir ishga ilmiy yondashish, olimlar va ijodkorlarning takliflarini inobatga olish haqidagi so'zlari ziyolilarga berilgan imtiyoz emas, balki ularga yuklatilgan mas'uliyatdir. Ana shu mas'uliyat tuyg'usi barchamizga esh bo'lsin!

Olimjon DAVLATOV

ZIYO LI KIM?



yo'q xalq g'amidini g'ami", degan hikmati uning-da hayotiy maslagiga aylanajak.

BOQIY QUDRAT

Bir haqiqatni chuqur anglashimiz kerak: moddiy farovonlikning o'zi to'kis taraqqiyot belgisi emas. Rivojlanish ko'pincha sarmoya hajmi, osmono'par binolar soni, yo'llar ravonligi-yu turmush qulayligi bilan o'lchanadi. Bularning ahamiyatini inkor etmoq niyatimiz yo'q. Ammo iqtisodiy farovonlik va ma'naviy kamolot qo'shqanotligi hamma zamonda ham o'lmas ehtiyoj bo'lgan. Bir qanotli qush ko'kka parvoz qila oladimi, aytgini Rim o'zidan 2000 yillik yodgorliklar qoldirgan uchungina ulug' emas. U Vergiliy va Sitseronning fasohatli tilida so'zlagani uchun, Avgustin va Avreliyning balog'atli mushohadalariga beshik bo'lgani uchun ulug'dir. Xuddi shu kabi "Ziji jadidi Ko'ragoniy", "Xamsa", "Boburnoma" kabi nodir asarlar Sharq Renessansi deya ulug'langan Temuriylar davrining shuhratini yetti iqlimga yoygan.

Taraqqiyotning chinakam belgisi – jonsiz matohlar emas, balki ashjolarga ruh bag'ishlaydigan ma'naviy qudratdir. Agar mamlakatda olamshumul kashfiyotga qo'l uruvchi yo hayratangez asar yaratuvchi olim yo ijodkor yetishib chiqmasa, uning xalqi iste'molchi jamiyat bo'lib qolaveradi.

HAR TOSH, HAR RAVOQ QADRLI

Manguqlikka daxldor onlar mavhum tushunchalar, olis ufqda qolib ketgan muhjam damlar emas. Abadiyat biz ayni lahzada yashab o'tayotgan fazo va makonga chambarchas bog'liqdir. Shu ko'klamda Yangi O'zbekistonda ro'y bergan ikki muhim hodisaga alohida e'tibor qarashni istardim. Birinchisi, Olmalik shahrida qurilishi kamida o'n yil talab qiladigan Misni qayta ishlash fabrikasi atigi to'rt yilda bitkazildi. Bu – texnologik qudrat mo'jizasi, tashkilotchilikning g'alabasi. Ayni chog'da, Islom sivilizatsiyasi markazi 8 yilga yaqin muddatda bunyod etildi. Vaqt tafovuti sababi nimada? Gap shundaki, madaniy obida shoshmashoharlik bilan, konveyer usulida barpo etilmaydi. Zero, san'at asarining har toshi – bunyodkor niyatning ifodasi, har ravog'i – ajdodlarning buyuk xotirasiga ehtirom ramzi.

Barcha davrlarda ziyolilar u yo bu shaklda davlat va davlatmand kishilarning ehson va in'omi, saxovat va muruvvatidan bahramand bo'lgan. Ammo ziyolining erkiga daxl qilmasdan, uning iste'dodini o'zining mayda istaklariga bo'ysundirmasdan qo'llab-quvvatlash hammaning ham qo'ldan kelavermaydi. Ziyoliga ko'rsatiladigan e'tibor samimiy ehtiromga uyg'un kelsa, o'sha yerda tinchlik, barqarorlik va taraqqiyot poydor



“Ilm ila kimning dili ravshan erur,
U zamon ichra salomat tan erur.

Fariddin ATTOR



TAVALLUD

OLMOS QIRRALARI

Muhtaram Prezidentimiz "Burhonniddin Marg'ioniy" ilmiy-ma'rifiy va turizm majmuasining ochilish marosimidagi nutqida o'zbek san'ati va madaniyati ravnaqiga beqiyos hissa qo'shgan ulug' san'atkorlar qatorida Muhiddin Qori Yoqubov nomini ta'kidlab o'tdi. Bugun – o'zbek xalqining ulug' farzandi, madaniyat va san'at arbobi, birinchi o'zbek bariton xonandasi, beqiyos iste'dod sohibi Muhiddin Qori Yoqubov tug'ilgan kun.

U 1896-yil 1-mayda Farg'ona viloyatining Yormozor qishlog'ida dunyoga kelgan. Otasi ziyoli bo'lib, o'g'lining zamonaviy ilmlar egasi bo'lishiga harakat qildi. U yoshligidanoq o'zida milliy hamda yevropacha madaniyatni aks ettirgan Farg'ona shahrining madaniy hayoti bilan qiziqdi, turli to'garaklar, jumladan, musiqa yo'nalishiga qatnashdi. Nota yozuvini o'rgandi, damli sozlar orkestrida cholg'ular chalishni o'zlashtirdi. 1916-yili Farg'onada havaskor yoshlarni jamlab, musiqiy to'garak tashkil qildi.

1918-yili Hamza Hakimzoda Niyoziy bilan tanishuvi yosh ijodkor hayotida muhim ahamiyat kasb etdi. Har ikki ijodkor birgalikda "Boy ila xizmatchi", "Farg'ona fojiasi", "Tuhmatchilar jazosi" kabi pyesalarni sahnalashtirdilar. Mazkur spektakldagi bosh rollarni Muhiddin Qori Yoqubov ijro etdi. O'sha yillarda ijodkor turli shaharlarda o'tkazilgan konsertlarda "Sharq kechalari" deb nomlangan konsert dasturi bilan qatnashar, "Ushshoq", "Bayot", "Chorgoh", "Dugoh", "Ko'chabog", "Eshvoy", "Yo'l bo'lsin" kabi ashulalarni kuylab, muxlislar mehrini qozogandi.

1925-yili Tamaraxonim bilan Parijda o'tgan Jahon san'at ko'rgazmasida qatnashdi. Berlinga taklif qilinib, mashhur Betxoven zalida bergan konsert katta shov-shuvga sabab bo'ldi. Nemis matbuotida chop etilgan maqolada shunday jumalarni o'qish mumkin: "O'zbek xonandasi Muhiddin Qori Yoqubovning ijrosi, ayniqsa, katta taassurot qoldirdi... Uning repertuarida hali notaga yozib olinmagan ikki yuzdan ziyod asriy qo'shiqlar mavjud. Uni nihoyatda qizg'in va hayajonli kutib oldilar".

1926-yili hofiz Marg'ilon o'zbek etnografik ansamblini tashkil etdi. Mazkur ansambl bilan

ko'plab shahar va qishloqlarda, jumladan, Moskva shahrida ijodiy safarda bo'ldi. Shundan keyin Moskvada uch yil taniqli rejissyor Meyerxold studiyasida tahsil oldi.

Muhiddin Qori Yoqubov tashabbusi bilan Davlat etnografik ansambli birinchi O'zbek musiqali teatriga aylantirildi. Teatrga Halima Nosirova, Karim Zokirov, Lutfoxonim Sarimsoqova, Boborahim Mirzayev, Tamaraxonim, Mukarrama Turg'unboeva, Muxtor Ashrafiy kabi san'atkorlar taklif qilindi. Bu hodisa o'zbek milliy operasining yaratilishiga zamin hozirladi. Mazkur sahnada Qori Yoqubov qator operalarda asosiy partiyalarni ijro etdi. O'zbek davlat filarmoniyasining tashkil etilishida ham bu ulug' san'atkorning xizmatlari beqiyos ustozlik qildi. O'zi ham sahnada "Ilila yorim", "G'ayra-g'ayra", "Olmacha anor", "Bilakuzuk", "Suv bo'yida" kabi xalq qo'shiqi va laparlarini mohirona ijro etdi. Hozirgi kunda mazkur jamoa uning nomi bilan ataladi.

Afsuski, sovetlarning qatag'on siyosati tufayli umrining bir necha yilini qamoqda o'tkazgan



Qori Yoqubov qamoqdan qaytgach, og'ir dardga chalingani ma'lum bo'ldi. O'zbekning betakror hofizi 1957-yil 2-fevralda vafot etdi.

Mustaqillik davrida Qori Yoqubov "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlandi.

Yevropaliklarni uni "O'zbek Shalyapini" deb olqishlansa, O'zbekistonda Tamaraxonimni – oltin, Qori Yoqubovni – bebaho olmos deydishadi.

Gulchehra UMAROVA

AZIZ XOTIRA



QATAG'ON QURBONLARI

(Davomi. Boshlanishi o'tgan sonlarda).

Ismoiljon Alimov – 1900-yili Andijon shahrida savdogar oilasida tug'ilgan. Qamoqqa olingunga qadar Andijon rayoni Sho'ro qishloq soveti Stalin nomidagi kolxozda hisobchi bo'lib hayot kechirgan. 1937-yil 26-sentyabrda O'zSSR Ichki ishlar xalq komissarligi Andijon sektori tomonidan o'z oldiga qurolli yo'l bilan sovet hokimiyatini ag'darish vazifasini qo'ygan "Milliy ittihad" tashkilotining ishtirokchisi sifatida hibsga olingan.

Ish bo'yicha tergovda Alimov Ismoiljon 1919-yili "Milliy ittihad" millatchi tashkilotga a'zo bo'lib kirgan. Shu tashkilotning topshirig'i bilan Mirza Tog'a qo'rboshining bosmachilar to'ldasida ishtirok etganlikda, aksilinqilobiy yig'inlarda qatnashganlikda ayblangan. Unga bildirilgan ayblarni tan olmagan. Vali Shokirov, G'oyib Toshmatov, Yusufjon Qodirovning ko'rsatmalari bilan fosh etilgan. Ish bo'yicha Akbarali Ashurov, Burxon Mashrabiy bilan yuzlashtirilib jinoyi aybi bo'yniga qo'yilib, 1937-yil 13-noyabrda O'zSSR NKVD huzuridagi Uchlik qarori bilan 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazoni Sibiridagi Kolim rayonida o'tagan. Jazo muddati 1947-yili 29-sentabrda tugashi munosabati bilan qamoqdan ozod qilingan.

Abdurahim Ernazarov – 1888-yili Bulung'ur rayoni Tunotar qishlog'ida tug'ilgan. "Sho'royi islom" va "Milliy ittihad" tashkilotlarining sobiq a'zosi. Bosmachilarga homiylik ko'rsatgani uchun partiyadan o'chirilgan, qamoqqa olingan paytda yakka-xo'jalik bo'lgan, doimiy ravishda aksilinqilobiy targ'ibot olib borganlikda ayblangan. O'zSSR JK ning 66-moddasi 1-bandi bilan ayblanib, 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazo muddati 1937-yil 2-dekabr bilan hisoblangan.

Mulla Turg'un Ibrohimov – O'zSSR birlashgan qishloq fuqarosi, quloqqa tortilgan. Hibsga olingan vaqtda kolxoz a'zosi bo'lgan. "Milliy ittihad" tashkiloti a'zosi bo'lganlikda ayblangan. Doimiy ravishda kolxozga qarshi targ'ibot olib borganlikda, taraqqiyotchilar bilan aloqada bo'lganlikda ayblanib, 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazo muddati 1937-yil 1-dekabr bilan hisoblangan.

Hojimurot qori Sobirov – 1880-yilda Shofirkon rayonida tug'ilgan. Millati o'zbek. "Milliy ittihad" tashkiloti a'zosi bo'lgan. O'zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-bandi va 67-moddasi bilan bosmachilik guruhi ishtirokchisi sifatida kengashlarda doimiy va tizimli ravishda aksilinqilobiy faoliyat olib borganlikda ayblanib, 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazo muddati 1937-yil 27-noyabr bilan hisoblangan.

Salimxon Tillaxonov – 1898-yili Toshkentda tug'ilgan. O'zbekistonda "Milliy istiqlol" harakati namoyandalardan biri, "Milliy ittihad" tashkiloti Sirdaryo viloyati rahbari bo'lgan. 1914–1916-yillarda boshlang'ich maktablarda o'qituvchi, "Turon" truppasida aktyor bo'lgan. 1916–1917-yillarda Boku Pedagogika institutida o'qigan. Toshkent eski shahar maorif bo'limi mudiri. Salimxon Tillaxonov O'rta Osiyo institutida ham o'qigan va o'qituvchilik qilgan (1924–1925). Toshkent okrug moliya kursini tashkil etib, unga rahbarlik qilgan (1925–1929). "Moliya fani asoslari" asarini yozgan. 1929-yil noyabr oyida Davlat siyosiy boshqarmasi (GPU) tomonidan qamoqqa olingan. 1931-yil 23-iyunda Moskva shahrida otib tashlangan. 1989-yil 24-martda oqlangan.

Azizbek MAHKAMOV,
tarix fanlari bo'yicha
falsafa doktori

Nigoraxon AKBAROVA,
tadqiqotchi

(Davomi kelgusi sonda).

SADOQAT

QABRGA QO'YILGAN QORAXAT

Sakson yetti yil oldin boshlangan Ikkinchi Jahon urushi oqibatlarida raqamlarda aks ettirilsa, eng diydasi qattiq odamning ham badani jimirlab ketadi – 50 million qurbon, 32 million nogiron.

Urush janggohlaridan besh ming chaqirim uzoqda joylashgan yurimchi ko'rgan talofat izdihom ichida qolgan Yevropa davlatlaridan kam emas. Raqamlarga yuzlanamiz: urush arafasida respublikamizda 6 million kishi yashagan. Bevosita va bilvosita urushga tortilganlari soni 1,5 million kishidan ortiq. Bu, har to'rt kishining biri taqdiriga ajal bilan yuzma-yuz kelish yozildi, degani. Jang maydonlarida halok bo'lganlari soni 800 ming nafardan ortiq. Bu hisobga urush ortida ochlikdan, turli yuqumli kasalliklardan bevaqt vafot etganlar kirmaydi. O'sha davrda yashash qismatiga yozilgan insonlar ochlik va kasalliklardan butun-butun oilalar qirilib ketganini afsus bilan hamon eslashadi. Taqribiy hisoblarga qaraganda, la'nati urushi xalqimizning beshdan birini o'z domiga tortib ketgan. Ya'ni, aholining yigirma foizi bo'y berilgan. Holbuki, urushni ochgan Germaniya ko'rgan talofat aholisi sonining o'n ikki foizini tashkil qiladi, xolos...

Bular yetti yil davom qilgan urushning bevosita qurbonlari. Yana shuncha va hatto undan uzoq davom qilgan, qilyotgan asoratlar-chi? Oradan salkam to'qson yil kechsa-da, hamon bitib ketmagan urush asoratlarini haqida so'z yuritamiz. "Umid oxirida o'ladi", degan gap bor. Bu "umid" degani shu qadar umidkor bo'lganki, hatto...

Hazorasping Juvondir qishlog'ida Yoqut momo otliq jannati ayol yashab o'tdi. U ayni zavq-shavq bilan yashashga qadam qo'ygan o'n sakkiz yoshida beva qoldi – to'yidan uch hafta o'tgach urushga olib ketilgan eridan bir yil o'tgach "qoraxat" keldi. Momo turmush o'rtog'i halok bo'lgani xabaridan so'ng boshqa turmush qurmadi. Qora tonglardan birida xat tashuvchi keltirgan uchburchak xat – "qoraxat"ni tumor kabi bir umr asradi. Keksayingan chog'larida ham doka ro'moli uchiga tugilgan "qoraxat"ni ahyon-ahyonda ko'zlariga surib qo'yardi. Yozuvlarini yillar o'chirgan, titilib ketgan bir parcha qog'oz momo uchun yolg'onchi dunyoning bor haqiqati edi. Shu bir parcha qog'ozda umid degani bir umr yashirib yotdi. Gurung orasida momo: Qoraxat ortidan tirik qaytgan necha-necha yigitlarni ko'rdik", deb xo'rsinib qo'yar, xira torgan ko'zlarini beixtiyor yo'llarga tiklardi. Momo urushga ketgan erini oltmish besh yil kutdi...

Shovotlik keksa shoir va yozuvchi Ortiqboy aka Mangliboyev shunday xotirlaydi: "Og'ir urush yillari. Oilada olti jon yashardik. Onamning kolxozda ishlab topgani qornimizga yuq ham bo'lmasdi. Xonaning to'ridagi burchagiga sim tortilgan bo'lib, unda dokaga o'rangan to'rta bir uchi tishlangan bo'g'irsoqlar osig'liq turardi. Men ba'zan ochqab ketganimda onamga "Bo'g'irsoqni olib bering!" deb xarxasha qilardim. Shunda onam: "O'g'lim, bu bo'g'irsoqlar tog'anglarning nasibasi. Birovning nasibasini birovi yemaydi. Urush tugab tog'anglar eson-omon qaytishsin, keyin bo'g'irsoqlar birga yeymiz", der edi. Bir kuni uyimizga xat tashuvchi keldi va indamay



uchburchak xatni uzatdi. Men bola ongim bilan o'sha uchburchak ichida biror yegulik bormi, deb o'ylabman. Onam xatni ochib, yig'lab yubordi.

Urush tugadi, yillar ortidan yillar o'tdi. Onam bo'g'irsoqlar o'ralgan matoni bir necha marta almash-tirdi. Urushga ketganlarning omon qolganlari qaytib kelishdi. Biroq Sattorberdi, Rahimberdi, Abdulla va Ochildi tog'amlar qaytishmadi. Yillar davomida avaylab-asrab kelingan bir cheti tishlangan bo'g'irsoqlar hech kimga nasib qilmadi. Inilari firog'i onamning belini bukdi – qirq bir yoshida bevaqt olamdan o'tdi. Vafoti

arafasida ham: "Tog'anglar kelib qolishar, bo'g'irsoqlarga tegmanglar!" deb tayinladi".

Xonaning Qoramoz qishlog'ilik Ro'zigul momoning umidlari yanada og'riqli. Urushning ilk yili kuzagida uning o'g'lini ham harbiyga chaqirishadi. Qishloq sho'rosidan chaqiruv qog'oz keltirishgan vaqtda o'g'li og'lixona tomida mollariga qishloqqa deb o'rgan jo'xori poyalarni taxlab yurgan bo'ladi. Navbatdagi jo'xori bog'lamiqam pashaxani sanchib teparoqqa uloqtirmoqchi bo'lgan vaqtda uni chaqirib qolishadi. U tomondan sakrab tushadi va onasiga dalda bergancha tez kiyinib harbiy komissariyatga ketadi. Shu ketganicha uyiga qaytmaydi. Onaizor har tong o'g'li chala qoldirgan ish – pashaxa sanchilgan jo'xori bog'lamiqam ko'rgan boradi. Nazarida, o'g'li "Mana ona, men keldim!" deydi-yu, chala qolgan ishini davom qildiradigandek.

Urush tugaydi. Janggohlarda omon qolganlar mayib-majruh holda bo'lsa-da, birin-кетин yurtga qaytadilar. Ro'zigul momoning o'g'li esa qaytmaydi – dom-daraksiz ketadi. Momo ko'ngliga har tongda umid bag'ishlaydigan pashaxa sanchilgan bir bog'lam jo'xori shu holatda, o'g'li qoldirganicha turaveradi. Oradan o'n, yigirma, o'ttiz yil kechadi. Momoning sochlari oqaradi, oyoqlaridan mador ketadi. Ammo har tong o'g'lining so'ngi bora qo'li tekkan pashaxa va bir bog'lam jo'xorini ziyorat qilgani borishini kanda qilmaydi. Bir bog'lam jo'xori chirib, go'ngga aylanadi, pashaxa zanglab, sanchiqchilari nozik tortadi, dastasi qorayib ketadi.

Kenja'o'g'lieskirib, nurabibatayozgan molxonani yangidan qurishni onasi

bilan maslahatlashganida, Ro'zigul momo pashaxa sanchilgan bir bog'lam jo'xori turgan qismini buzmaslikni buyuradi. O'g'li onasi umidini so'ndirmaydi – molxona yangidan quriladi, ammo o'sha pashaxa sanchilgan bir bog'lam jo'xori turgan eski molxona bo'ladi asrab qolinadi.

Bundan yigirma yillar oldin shu qishloqlik olim Abdulla Ahmedov aytib bergan bu g'aroyib voqeaga ishonmay o'sha pashaxa sanchilgan bir bog'lam jo'xori saqlanayotgan eski molxona bo'lagini ko'rgan borandim. Bu paytda momo chin dunyoga ko'chib o'tganiga o'n besh yillar bo'lgandi...

Xorazmda marhumni qabrga qo'ygach, boshini qiblagga o'girib, mozorning ichki tomoniga "Yosin" surasi yozilgan qog'ozni biror cho'pga naycha qilib o'rab qo'yish odati bor. Muxomonlik Yoqut momo turmush o'rtog'ini oltmish besh yil kutib, ko'zlarini g'iryon bo'lib, armon bilan dunyodan ko'z yumayotgan vaqtda vasiyat qiladi: "Qabrimga "Yosin" surasi o'miga shu "qoraxat"ni qistirib qo'yinglar. Oxiratgacha shunga tikilib yotay". Momoning vasiyati bajariladi.

Ulug' shoirimiz Abdulla Oripovning ayol sadoqatiga bag'ishlagan mashhur she'ri to'qib chiqarilmagan – ayni hayotdan olinganiga yuqoridagilarni o'qigach ming karra ishonarsiz. Urush izdihomi bevaqt yutib yuborgan alp yigitlarning go'shangada qolgan jufti halollari, umri yo'llarga tikilib o'tgan onazorlari sadoqatu taqdirilari haqida bilganimizcha, eshitganimizcha, ko'rganimizcha atigi uchta hikoya aytdik. Aslida, bunday hikoyalarni yuzta, mingta, milyonta! Janggohlarda shahid ketgan har bir yigit va uni umri adog'igacha umid bilan kutgan yorlari, onazorlarining har birisi shonli tarix. Qonli tarix. Ibratli tarix!

Ro'zimboy HASAN

JAHON AYVONIDA

VAQTINCHALIK SULH TAKLIFI

Rossiya prezidenti Vladimir Putin telefon orqali AQSH rahbari Donald Tramp bilan muloqot qildi.



U 9-may arafasida Ukrainadagi urush bo'yicha vaqtinchalik sulh e'lon qilishga tayyorligini bildirdi. Bu haqda Putinning yordamchisi Yuriy Ushakovga tayanib "RIA Novosti" xabar berdi.

Biroq Tramp Oq uya jurnalistlar bilan suhbatda sulh g'oyasi undan chiqqanini aytgan.

FOSH ETILGAN "MUHTOJLIK"

Avstraliyada olti yashar o'g'lini saratonga chalingan deb yolg'on gapirgan va xayriya mablag'larini dabdabaga sarflagan ona to'rt yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum etildi. Bu haqda BBC xabar berdi.



Ayol ishtirokchisi uchun o'g'lining sochi va qoshlarini qirib tashlab, boshi va qo'llarini bint bilan tang'ib qo'ygan. Shuningdek, unga turli dorilar ichirgan.

Huquqiy sabablarga ko'ra ismi oshkor qilinmayotgan bu ayol o'z farzandiga zarar yetkazish va 10 ta firibgarlik holati bo'yicha aybini tan oldi.

O'QITUVCHILARNI CHALG'ITMANG

Qozog'istonda Majilis deputati Asxat Aymag'ambetov o'qituvchilarning turli siyosiy tadbirlarda ishtirok etishi masalasiga to'xtaldi. Uning so'zicha, o'qituvchilarni bunday faoliyatlariga majburiy jalb qilish noqonuniy hisoblanadi.

"O'qituvchini darsdan olib chiqib, keraksiz yig'ilishga yuborgan odam kimligidan qat'i nazar – agar u yuridik

shaxs bo'lsa, tashkilotiga jarima qo'llanadi, jismoniy shaxs bo'lsa, javobgarlik



o'sha inson zimmasiga tushadi", degan Aymag'ambetov.

TRAMPLI PASPORT

AQSH mustaqilligining 250 yilligi munosabati bilan mamlakatda amaldagi prezident Donald Tramp tasviri tushirilgan pasportlar



seriyasi chiqariladi. Bu haqda Time xabar berdi.

E'lon qilingan yangi dizaynga ko'ra, pasport muqovasining ichki old tomonida Trampning portreti va uning oltinrang imzosi bo'ladi. Hujjatning orqa tomonida esa amerikalik rassom Jon Trambullning mashhur "Mustaqillik deklaratsiyasi" kartinasidan bir qismi tasvirlanadi.

KONCHILAR NAMOIYISHI




Turkiya poytaxti Anqara shahrida konchilar bir haftadan beri ochlik namoyishi o'tkazmoqda. Bu haqda Turkiya today xabar berdi.

Qayd etilishicha, namoyishchilar bir necha oy davomida ularga maosh to'lanmagani va mehnat huquqlari buzilgani uchun norozilik bildirmoqda.



YANGI KITOBLAR



Bu orol haqida bir paytlar fidoyi olim va adib Mengziyo Safarov betakror asarlar yaratgan. Ko'pchilik kitobxonlar bu asarlarni o'qi-

gan, yurtimizda shunday sirli-sinoatli go'sha borligidan hayratga tushgan, uni bir bor ko'rmoqni orzu qilgan. "Payg'ambar oroli tilsimi" nomli kitob muallifi ham shundoq yonginasida joylashgan bu sehrli orolga borish uchun 44 yil ko'z tikkani, intilganidan so'z boshlaydi.

"Payg'ambar oroli haqida eshitgansiz-a? – savol qo'yadi u. – Ham sirli, ham afsonaviy. Dunyoda bitta. Men dunyoning boshqa biron go'shasida "Payg'ambar oroli" degan orol borligini eshitmaganman. Payg'ambar oroli... U haqda rivoyatlar ko'p. Hatto barchasini

to'plasangiz, qiziqarli kitob hosil bo'ladi. Orolni qadimshunos olimlar o'rganishmagan hisob. Taajjubga tushdingiz, to'g'rimi? Nega daryo o'rtasidagi orolni aynan arxeologlar o'rganishi darkor? Gap orolning nomida, taqdirida... U nima uchun Payg'ambar oroli deb nom olgan? Bu savolga javob bor. Va javob yo'q..."

"Jayhun hamma daryolardan farqlanadi. Yuragi bor uning. Yuragida Payg'ambar oroli. Jayhunda suv emas, sir-u jumboqlar oqadi. Men sizga aytсам, qadimdan bilishgan... Jayhun... mana shu Amudaryoning tubida, to'lg'inlangan, toshqinlangan suvlar-

ning ostida, daryoning qa'rida bir sehrli giyoh o'sadi. Shu giyoh ko'rmaydigan ko'zni ochgan. Basir (so'qir – tahr.) ko'z dunyoni ko'rib boshlagan... U giyohning bir misqoliga bir tulpor ot berishgan"

Kitobda tarix va haqiqat oralig'ida turli afsona-yurivoyatlarga burkangan orolning tilsimlari haqida so'z yuritiladi. Darvoqe, Mengnor Ollomurod qalamiga mansub ushbu kitob O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi homiyligida "Adabiyot" nashriyotida chop etilgan. To'plamdan, shuningdek, adibning boshqa esse va maqolalari, she'rlari ham o'rin olgan.

TUYG'U

Dadamning ikkinchi oilasi...



Bolaligimda ko'proq dadam yonimda bo'lishini xohlardim. Chunki nima istasam muhayyo edi-da. Ayamdan sho'xliklarim uchun dakki eshitgan paytlarda himoyachim – dadamning oldida chopardim. Ayam dadamning oldida ovozini balandlatib gapirmasdi. Menga maza, ayamga g'oyibona jilmayib qo'yardim. Qanday yaxshi. Har qancha erkalik qilsam ham birov urishmaydi. Shuning uchun dadamning uzoqqa ketishlarini yoqtirmasdim. Ammo ne iloj, ro'zg'or tebratish oson emas.

Ammo bu safar bir shart qo'ydim. Agar men rostanam yaxshi ko'rgan qizi bo'lsam, tug'ilgan kunimga katta tort olib, bog'chamga borishini aytdim. Shu yo'l bilan o'rtoqlarimga maqtanib, go'yo hammaning oldida dadam meni yaxshi ko'rishlarini isbotlamoqchi bo'ldim. Roziligini olgach, tug'ilgan kunimni kuta boshladim. Besh kun, to'rt kun, uch... va nihoyat men kutgan kun keldi. Dadamning kelishini hammaga aytib qo'yganiman. O'rtoqlarim tort kutaypti, men esa tortdan ham ko'proq dadamni.

Kech tushib, bog'chadan ketish vaqti yaqinlashayptiki, dadamdan darak yo'q. Meni yaxshi ko'rmas ekan, deb yig'lay boshladim. Mudira opaning yupanchlari ham foyda bermadi. Tug'ilgan kunimni yomon ko'rib qoldim. O'zimniyam yomon ko'rdim. O'rtoqlarimga maqtanmadim. Endi bog'chaga ham bormayman, deb uydagilarga injiqlik qilganim esimda. O'shanda ilk bor dunyodagi eng keraksiz odamdek his qilgandim o'zimni.

So'ng oradan yillar o'tdi, maktabga qadam qo'ydim. Bir kuni ustozimiz bizga vazifa berdi. "Mana, yozishni ham o'rganib oldinglar. Keyingi darsga hamma bolaligi, orzulari va hayotdagi qahramonlari haqida o'ylab kelsin. Shu mavzuda insho yozamiz", dedi. Yuragimni yana qo'rquv egalladi. Men nima haqida yozaman. Dadamning yo'lga intizor o'tgan bolaligimning nimasi yaxshi, dedim bog'chadagi voqea esimga tushib. Ammo ustozimiz boshqacha tushuntirdi. Masalan, men dadam haqida yozishim mumkin ekan. Vatani uchun, bizning tinchligimiz uchun umrini tikkan fidoyi ekanligini, bunday insonlar bilan faxrlansak arzishini aytib, biz osuda tunda uxlab yotganimizda, ular yurtimiz sarhadlarida sergak bo'lib tun o'tkazishlarini alohida ta'kidladi.

Dadam avval ham harbiy xizmatchi bo'lishning mas'uliyati haqida gapirgan. Ayam esa ularning vazifalarini bizga tushuntirgan, lekin bola ko'nglim bilan tan olishni istamasdim. Endi bunday bo'lmaydi. Bugun ulg'ayganimni his qildim. Ustozning gaplaridan so'ng hayotga ishtiyogim ortdi. O'zi dadamning yaxshi odamligini bilardim, noo'rin xafa bo'lganimni bilib o'zimni koydirdim. Ertasi kuni eng yaxshi inshoni men yozib bordim. U dadamga bag'ishlangan edi. Tabiiyki, yozish jarayonida amakimning o'g'li aytdi gaplar yodimga tushdi. Dadamning ikkinchi oilasi, ehtimol, birinchi oilasi – Vatani ekan.

Shohsanam NISHONOVA


AFANDIDAN GAP KETSA...

Albatta, Nasriddin afandidan gap ochilsa, barchamizning yuzimizda tabasum paydo bo'ladi. Bu zakiy zotning faqat hozirjavoblighi va topqirlighi emas, ishni ham qoyil qilishdan zavq tuyamiz. Taniqli adib, tarjimon, publistsist va munaqqid Otauli esa Afandining har bir so'zini xalq donishmandligi aks etgan chinakam san'at asari sifatida talqin etadi.

"Tasviriy san'atning "mozaika" degan janri borligini bilasiz, albatta. Son-sanoqsiz yassi toshchalar jamlanmasi yaqindan qarasangiz hech nimani anglatmaydi, ma'lum masofadan esa ko'z oldingizda ajib manzaralar namoyon bo'ladi. Xuddi shunday, Afandining alohida olingan latifasi gohida oddiygina yassi toshchadek

jo'n ko'rinishi mumkin. Biroq bu "toshchalar qurami"ni yaxlit olib qarasangiz, ko'z oldingizda ajib manzaralar namoyon bo'ladi. Mana shu manzaralar iqlimida eng sevimli milliy qahramonimiz Xo'ja Nasriddin afandining o'zbek adabiyotida ham, jahon adabiyotida ham beqiyos siyosini, yorqin qiyofasi bor bo'yi bilan turli mavzudagi afandi latifalarini tahlil doirasiga olib, yaxlit bir asardek tadqiq qilishga kirishadi.

Ushbu qiziqarli tadqiqotlar adibning "Jonli so'z" nomli kitobiga kiritilgan. To'plam O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi homiylikida nashr etilgan. Undagi o'zbek xalq ertaklari va maqollarining ustki hamda



ostki ma'nolari haqidagi mulohazalar ham o'quvchini befarq qoldirmaydi, deb o'ylaymiz.

Nigina ISKANDAROVA

TILBILIM

MATAL

"Keling, sizga bir matal aytib beraman".

Xo'sh, matal o'zi nima va u qanday etimologiyaga ega?

Bu so'z atoqli olim Shavkat Rahmatullayevning "O'zbek tilining etimologik lug'ati"da, afsuski, mavjud emas. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da esa noto'g'ri izohlangan. Shu bois ushbu o'rinda u haqda to'xtalishni lozim deb bildik. Mana, izohli lug'atning keyingi to'ldirilgan nashrida unga berilgan izoh: "Matal – 1. Tug'al ma'no ifodalamaydigan obrazli ibora, hikmatli so'z (masalan, "qizil qor yoqqanda", "tuyaning dum yerga tekkanda"). 2. Qissa, masal". Aslida, bu izoh lug'atning 1981-yil nashrida ham aynan shunday, to'ldirilgan nashrdan ham faqat qavs ichida arab yozuvida ("matal") so'zi qo'shilib, arabcha ekanligi ta'kidlangan.

Ammo arab tilida "mim", "ta", "lom" harflari bilan yoziladigan ("matal") degan so'z yoki "matala" degan fe'l yo'q. Izohli lug'atga manba sifatida tayangan ba'zi maqola va kitoblarda bu izoh boshqa xatolarni ham keltirib chiqarganligini ko'rish mumkin. "Matal – bu folklor atamasi", deyilib bir maqolada. Umumiy, bu so'zning kelib chiqishi, unga berilgan izohning mavhumligidan: "Matal" deganda aslida nimani tushunish kerak?" degan savolga berilgan javoblar ham mavhum.

"Matal" chindan ham arabcha etimologiyaga ega, faqat uning arabcha yozilishi "matal" emas, balki "masal", ya'ni o'rtadagi harf "ta" emas, balki – "sa" bo'lib, u arabcha

"masala" fe'lidan yasalgan va "masal" so'zining "t" tovushi bilan talaffuz etilgan shakli, xolos. Tilimizda yana mazkur fe'lidan yasalgan "masala", "misol", "timsol", "tamsil" kabi ko'plab so'zlar bor.

Shunday qilib, "masal" va "matal" aslida bitta so'z, arab tili so'zliklarida unga – misol, o'mak, namuna; maqol, ibora, masal (janr) kabi izohlar keltiriladi.

Xo'sh, nima sababdan o'zbek tiliga bu so'z ikki xil: "matal" va "masal" shakllarida o'zlashib, hatto ma'no jihatidan ham farqli so'zlarga aylanib qolgan? Qiyoslang: "matal – frazeologik obrazli ibora, hikmatli so'z"; "masal – kishilarga o'g'it bo'ladigan, xulosali, kichik majoziy hikoya, m: Krilov masallari".

Bunday chalkashlikka olib kelgan narsa aslida bitta tovush, xolos. Gap shundaki, arab tilidagi "sa" tovushi o'zbek tilidagi "s" tovushi emas. Arabshunos olim A.Abdujabborov o'zining "Arab tili" kitobida bu tovushni shunday tushuntiradi: "sa" harfi – til uchi-yuqori va pastki tishlar orasi, sirg'aluvchi, jarangsiz tovushni anglatadi. O'zbek tilida bunday tovush yo'q. Transkripsiya yoki xalqaro tovushlar alifbosida arabcha "sa" uchun – "θ" belgisi qabul qilingan va u inglizcha "thin" yoki "think" kabi so'zlarda keladigan "th" tovushiga ham aynan mos keladi. Arabcha "sa" ham, inglizcha "th" ham o'zbek tilidagi yumshoq "t" va "s" tovushlari oralig'idagi tovush bo'lib, u ko'pgina tillarda mavjud emas, shu bois boshqa tillarda u ba'zan "t", ba'zan "s" deb talaffuz etiladi. Misol uchun, arabcha "Usmon" ismi ham "sa" harfi bilan



yoziyadi. Musulmon davlatlarda, jumladan, o'zbek tilida ham bu ism "Usmon" deb "s" tovushi bilan talaffuz etiladi. Ingliz va boshqa ovro'pa tillarida bu ism dastlab "Othman" deb yozilgan va talaffuz qilingan. Ammo keyinchalik "Usmonlilar imperiyasi" degan atamada "th" tovushi "tt"ga aylanib, ingliz, fransuz va boshqa ovro'pa tillarida "Usmonlilar Imperiyasi" – "Ottoman Empire" (fransuzcha: L'Empire Ottoman) deb aytiladi. Bu yerda "Ottoman" – aynan "Usmon"ning ovro'pacha talaffuzidan hosil bo'lgan.

Shu kabi o'zbek tilida ham "matal"da arabcha "sa" ning "t"lashish hodisasi sodir bo'lgan. Shuning uchun u tilimizda "qissa, masal" ma'nosida ko'p ishlatiladi. Izohli lug'atda Sadridin Ayniyning "Qullar" romanidan bunga ushbu misol keltiriladi: "Qulmurodning mataldek bo'lib eshitilayotgan dard-alamli hikoyasi ostida Shokir qachonlar uyqu daryosida g'arq bo'lgan edi".

Abduvohid HAYIT

Jadid
adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Bosh muharrir:
Iqbol MIRZO

Muallif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Mas'ul kotib: Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Gulchehra Umarova

Adadi – 18 477

Shundan:

Kirill yozuvida – 7 005
Lotin yozuvida – 11 472
Media kuzatuvchilar – 82 648
Buyurtma: G – 540
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko'rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6 6

Sahifalovchilar:

Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva



Manzillimiz:

Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko'chasi, 69-uy

Telefonlar:

Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 21:45

Sotuvda narxi erkin.



www.jadid.uz

Muassislar:



O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI



RESPUBLIKA MA'NAVİYAT VA MA'RIFAT MARKAZI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI



MILLIY MASS-MEDIANI QO'LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAAT FONDI



"SHAHIDLAR XOTIRASI" JAMOAAT FONDI